

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek filologiyasi fakulteti

dekani _____ Sh.Nuriddinov

“ ___ ” _____ 2017 yil

“5120100-Filologiya va tillarni o‘qitish (O‘zbek tili)” ta‘lim

yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

IV kurs 013-11-guruh talabasi

NABIYEVA RUSHANAning

**“TOHIR MALIK ASARLARIDA QO‘LLANGAN DINIY ATAMA
VA SO‘ZLAR TAHLILI”**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba _____Nabiyeva R.J.

Ilmiy rahbar _____ f.f.n.Musulmonova N.

“Himoyaga tavsiya etildi”

O‘zbek tilshunosligi kafedrası

mudiri _____ f.f.n. E.Jabborov

“ ___ ” _____ 2017 yil

Qarshi-2017

TOHIR MALIK ASARLARIDA QO'LLANGAN DINIY ATAMA VA SO'ZLAR TAHLILI

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. TOHIR MALIK ASARLARIDA IFODALANGAN DINIY ATAMA VA SO'ZLARNING QO'LLANISH XUSUSIYATLARI.....	6-37
1.1. Diniy atama, so'z va iboralarning yozuvchi asarlarida tutgan o'rni.....	6
1.2. "Alvido, bolalik" romanida qo'llanilgan diniy so'zva atamalar xususida.....	10
1.3. "Nomus" hikoyatidagi diniy so'zlarning leksik ma'nolari	27
I bob bo'yicha xulosa.....	36
II BOB. TOHIR MALIK ASARLARIDA UCHRAYDIGAN DINIY SO'ZLARNING MAHSULDORLIGI VA SALMOG'I.....	38-63
2.1. "Falak" qissasida qo'llanilgan diniy-islomiy so'zlarning mavzuviy tasnifi.....	38
2.2. Yozuvchi asarlarida qo'llanilgan diniy so'zlarning o'zaro mushtarakligi.....	49
2.3. Tohir Malik ijodida uchraydigan diniy atamalarning bugungi kun uchun ahamiyati.....	60
II bob bo'yicha xulosa.....	63
BMIDAN CHIQARILGAN XULOSA VA TAKLIFLAR.....	64
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	66

KIRISH

1. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.

Kundalik hayotimizda, kishilar bilan muloqot qilganimizda e'tiqod qiladigan dinimiz –islom diniga oid so'zlar, iboralardan foydalanamiz. Asrlar davomida ajdodlarimizdan meros qolgan bu diniy tushunchalarning mazmun-mohiyatini ba'zan anglab, ba'zan anglamay qo'llayveramiz. Bugungi kunda yot g'oyalar ta'siriga ko'pchilikning tushib qolishiga ham aynan dinni to'g'ri tushunmaslik, bilmaslik sabab bo'lmoqda. Shu o'rinda aytish kerakki, "...ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash joiz".¹ Islom diniga oid so'zlarning lug'aviy ma'nosini chuqur anglash, nutqda islom diniga oid atama va iboralardan to'g'ri foydalanish, shuningdek, diniy atama va iboralar lug'atini tuzish bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir. "Shu nuqtayi nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib kelmoqda."² Chunki islom diniga oid bilimga to'liq ega bo'lmaslik oqibatida hozirgi vaqtda jamiyatimizda bir qancha muammolar paydo bo'lmoqda.

Bu borada ayniqsa yozuvchi Tohir Malik asarlari e'tiborga molikdir. Hozirgi vaqtda yozuvchining "Umidimiz yulduzlariga" nomi ostida chiqayotgan odamiylik mulkiga oid suhbatlar nomli kitoblarida biz vijdon, diyonat, insof, nafs va shu kabilar haqida yozuvchining qarashlariga guvoh bo'lamiz. Umuman olganda, yozuvchi ijodida diniy tushunchalar tabdiliga keng e'tibor beriladi. Diniy so'zlar va iboralar uning asarlarida keng miqyosda qo'llanadi. Diniy atamalar, iboralarning yozuvchining aynan qaysi asarlarida ko'proq qo'llanganligini aniqlash, shuningdek,

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T:2008

²Karimov I. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. –T.:2008

diniy atamalar adabiy asar tiliga xos qanday xususiyatlarni o'zida mujassam etganini o'rganish ushbu mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Yana shuni ta'kidlash joizki, ushbu mavzu faqatgina diniy atama va so'zlarni yozuvchi asarlaridagi qo'llanish o'rinlari bilan cheklanib qolmaydi. Bunda diniy atamalarni mavzuviy jihatdan kichik guruhlariga bo'lib joylashtirish, atamashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish ham mavzuning dolzarb muammolaridan biridir.

2. Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:

- yozuvchi Tohir Malik asarlarida ishlatilgan diniy atama va so'zlarning qo'llanish xususiyatlarini aniqlash;

- amaliy ahamiyatini tasniflashdan iboratdir.

3. Bitiruv malakaviy ishning vazifasi:

- yozuvchining "Alvido, bolalik", "Nomus", "Falak" asarlarida qo'llangan diniy so'zlarni belgilash;

- leksik-semantik ma'nosini izohlash, tahlil qilish;

- diniy-islomiy atama va so'zlarni mavzuviy tasnif qilish;

- yozuvchi asarlarida ishlatilgan diniy so'zlarning e'tiqod ma'nosini ifodalaydigan lisoniy-nutqiy birliklar tizimidagi o'rnini aniqlash;

- bitiruv malakaviy ish predmeti bo'lgan asarlardagi diniy so'zlarning o'zaro mushtarak jihatlarini o'rganish;

- yozuvchi ijodida uchraydigan diniy atamalarning bugungi kun uchun ahamiyatini aniqlashdan iborat.

2. Ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi yozuvchi Tohir Malik asarlarida ishlatilgan diniy atamalar va iboralarning salmog'ini aniqlash va amaliy ahamiyatini tasniflashdan iboratdir.

Mavzuning vazifasi yozuvchi asarlarida uchraydigan diniy so'zlarni aniqlash va leksik ma'nosini izohlash, tahlil qilishdan iborat.

3. Mavzuni o'rganilish darajasining qiyosiy tahlili.

Tohir Malik asarlari ko'plab adabiyotshunos hamda tilshunoslar tomonidan nazariy va ilmiy o'rganilgan bo'lib, tadqiqot ishlari orqali fan zaxirasini ham boyitib

kelmoqda. O'zbek tilshunosligi kafedrasida magistranti Raisa Sultonova ham "Tohir Malik asarlarining sotsiopragsmatik tadqiqi muammolari" mavzusida magistrlik dissertatsiyasi himoya qilgan va unda adibning bir qancha asarlari sotsiopragsmatik tahlil qilingan. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda esa yozuvchining "Alvido, bolalik" romani, "Falak" qissasi va "Nomus" hikoyatida qo'llanilgan diniy atama va iboralar leksik-semantik tahlil qilingan.

4. Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda badiiy adabiyotda ishlatiladigan diniy so'zlar, atamalar va iboralarning Tohir Malik asarlari asosida leksik-semantik tahlili ishning ilmiy yangiligi hisoblanadi.

5. Tadqiqotning predmeti va obyekt. Bitiruv malakaviy ishining predmeti Tohir Malikning "Alvido, bolalik" romani, "Falak" qissasi va "Nomus" hikoyatlari bo'lib, ishning obyekt asarlardagi diniy so'zlar, atamalar, ismlar va iboralarning leksik-semantik ma'nolaridir.

6. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Filologiya fakulteti talabalarining kursishlari, bitiruv malakaviy ishlari, mustaqil ta'lim ishlari uchun asos vazifasini o'tashi mumkin. Shuningdek, Sotsiolingvistika, Nutq madaniyati, Onomastika, Antroponimika kabi bir qator fanlarni o'qitishda manba vazifasini bajarishi mumkin.

7. Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi "**Tohir Malik asarlarida diniy atama va iboralarning qo'llanilish xususiyatlari**" deb nomlanadi va unda Diniy atama va iboralarning yozuvchi asarlarida tutgan o'rni, "Alvido, bolalik" romanida qo'llanilgan diniy atama va iboralar xususida, "Nomus" hikoyatidagi diniy so'zlarning leksik ma'nolari haqida so'z boradi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi "**Tohir Malik asarlarida uchraydigan diniy so'zlarning mahsuldorligi va salmog'i**" deb nomlanadi va unda "Falak" qissasida qo'llanilgan diniy-islomiy so'zlarning mavzuviy tasnifi, yozuvchi asarlarida qo'llanilgan diniy so'zlarning o'zaro mushtarakligi, Tohir Malik ijodida uchraydigan diniy atamalarning bugungi kun uchun ahamiyati haqida gap boradi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi Kirish, 2 bob, 6 fasl, bob bo'yich xulosalar, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, ishning umumiy hajmi 67 sahifadan iborat.

I BOB. TOHIR MALIK ASARLARIDA IFODALANGAN DINIY ATAMA VA SO'ZLARNING QO'LLANISH XUSUSIYATLARI

1.1. Diniy atama, so'z va iboralarning yozuvchi asarlarida tutgan o'rni

Yozuvchi Tohir Malik ijodi bilan tanishar ekanmiz, uning asarlarida muqaddas dinimiz –islom dini bilan bog'liq atama va iboralarga duch kelamiz. Xususan, yozuvchining ko'pgina asarlari “bismillahir rohmanir rohiym” deb boshlanib, “omiyn” deb yakunlanadi. Bu yozuvchining islom diniga bo'lgan yuksak e'tiqodi borligini, shuningdek, asarlariga ilohiy ruh bag'ishlashni niyat qilganligidan dalolat beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yozuvchining diniy atamalardan qo'llash mahorati uning islom diniga oid bilimlarni chuqur bilganligidandir. Tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, diniy atama va iboralarni, ayniqsa, muqaddas dinimiz islom diniga oid so'zlarni tahlil qilish nomshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tohir Malik asarlarida personajlar tilidan aytilgan diniy so'zlar “*kalima*”, “*duo*”, “*do'zax*”, “*qiyomat*”, “*tahorat*”, “*nafl ro'za*”, “*hidoyat*”, “*nomahram*” va shu kabilar yozuvchi ijodini tadqiq qilishga undaydi. Diniy so'zlar yozuvchi ijodida shunchaki qo'llab ketilavermaydi. Ular ma'lum bir voqelikka personajlarning munosabatini bildirish uchun, diniy uquvini o'quvchiga ko'rsatish uchun, shuningdek, ma'rifiy vazifani o'tash uchun xizmat qiladi. Masalan, Yozuvchining “Alvido, bolalik” romanida spirtli ichimlikning salbiy oqibatlarini o'quvchi ongiga singdirish uchun unga nisbatan “**shaytonning peshobi**” iborasi qo'llaniladiki, bu ma'rifiy vazifa kasb etgan.³ Yana ichimlikning mukofoti “qiyomat”da zaqqum daraxtining zahar mevasini yeb, chanqagan chog'i tashnaligini qondirish uchun qaynoq suv ichish azobi haqida ham gapirib o'tiladi. Bu yerda qo'llangan shayton va qiyomat so'zlari diniy so'zlar bo'lib, yozuvchi ulardan o'quvchini yomon odatdan saqlanish kerakligini uqtirish uchun foydalangan. Bundan tashqari yozuvchi diniy

³ Tohir Malik. Alvido, bolalik. Roman. –T.: Yangi asr avlodi, 2015-y 49-bet

so'zlarni ko'chma ma'noda ham qo'llab mazmunning aksini isbotlab berishga ham xizmat qildirgan. Jumladan, "Alvido, bolalik" romanida yozuvchi diskoteka nomini qo'yishda jannat bog'laridan birining nomi bo'lgan "**Firdavs**" nomidan foydalanadi. Bu aslida ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lib, diskoteka hech qachon jannat bog'iga o'xshamasligini asarda isbotlab beradi.

Ma'lumki, diniy so'zlar masalasida biz ko'pincha sha'riy atamalar bilan cheklanamiz. Aslida esa e'tiqod ma'nosini ifodalaydigan lisoniy-nutqiy birliklar tizimi birmuncha kengroq bo'lib, ularni shartli ravishda sha'riy terminlar; diniy so'zlar; diniy ma'no ifodalaydigan lisoniy-nutqiy birliklar tarzida uch guruhga bo'lish mumkin:

1. *Me'roj, tahorat, tarovih, ehrom, e'tiqod, masjid, xutba qur'on, sura, oyat, hadis, sahoba, farz, sunnat* kabi sha'riy terminlar;

2. *Yaratgan, egam, xudo, parvardigor, payg'ambar, nikoh, ibodat, topinmoq, sig'inmoq, cho'qinmoq, cherkov, havoriy, ruhoniy, rohib* singari diniy terminlar;

3. *So'fiy, hirqa, jazba, xarobot, musofir, yor, oshiq, ma'shuqa, do'st, soqiy, may, mayxona, boda, nafs* kabi tasavvufiy ma'nodagi birliklar.

Yozuvchi asarlarida biz har uchala guruhga mansub so'zlarga duch kelamiz. Uning "Alvido, bolalik" romanida sof diniy terminlarni uchratsak, "Nomus" hikoyatida tasavvufiy ma'nodagi birliklarni, "Falak"da esa sha'riy terminlarni qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin.

Matnga bog'liq holatda diniy ma'no ifodalaydigan birliklarham o'z navbatida :

1) *Musofir, pir, murid, shayx, suluk, solik, murshid, hol, maslak, maqomot* tarzidagi tariqatga oid terminlar;

2) *Oshiq, ma'shuqa, do'st, yor, may, mayxona, boda, soqiy, jonona, ishq, dilbar, bo'sa* kabi mumtoz she'riyatda shartli ravishda e'tiqod ma'nosini ifodalaydigan lisoniy-nutqiy birliklar tarzida ikkiga bo'linadi.

Ta'kidlash joizki, e'tiqod ma'nosini ifodalaydigan birliklar tizimida tariqatga oid terminlar o'ziga xos alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi:

Birinchi, shariat terminlari tariqatda matnning mazmuniga ko'ra sha'riy yoki tariqatga oid ma'no ifodalashi mumkin;

Ikkinchidan , tariqat terminlari shariatda qo'llanmaydi yoki sha'riy matnda e'tiqod ma'nosini ifodalamaydi;

Uchinchidan, tariqat terminlari tasavvufga oid matnda e'tiqod ma'nosidagi matnga aylanadi.

Demak, yozuvchi ijodini tadqiq qilishda biz faqat diniy so'zlar tadqiqi bilan cheklanib qola olmas ekanmiz. Chunki tasavvufiy mazmun kasb etgan so'zlar ham, e'tiqod nuqtai nazaridan qaralganda, o'rganilish obyektlaridan biri sanaladi.

Endi yuqorida sanab o'tganimiz sha'riy terminlar va diniy terminlar haqida gapiradigan bo'lsak, ular o'zaro farqlanadi. Nutqda ko'pincha bular bir nom ostida diniy so'zlar deb qo'llanib ketilaveradi. Lekin ular bir-biridan farq qiladigan terminlardir .Masalan, "Nomus" rivoyatida keltirilgan quyidagi parchada qo'llangan so'zlar sha'riy terminlardir:

"...*Kalima qaytara-qaytara*, qo'rquvni yenggan bo'lib, yigitning yuziga qo'l yubordi" (3-b);

"...Sening *duolaring* ijobat bo'lgan-ku, qizim, -dedi Shayx" (5-b);

"...Keyin "bu ne sinoat bo'ldi ?" degan o'yg'a bandi bo'lib o'tirmay, *tahorat oldi* ".(5-b)

Yuqoridagi parchalarda ajratib ko'rsatilgan so'zlar sha'riy terminlardir.

Diniy terminlar ham yozuvchi asarlarida sha'riy terminlar bilan birgalikda qo'llanib ketilaveradi. Masalan, yozuvchi birgina "Nomus" rivoyatida Allohning bir qancha nomlarini erkin almashtirib qo'llaydi. "**al-Hodiy**", "**zul-Jaloli val-Ikrom**", "**al-Botin**", "**as-Sabur**", "**Alloh taborak va taolo**", "**Alloh**", "**Yaratgan**", "**Yo Rabb**", "**Rahmon**", "**Rahim**", "**Haq taolo**", "**Xoliq**" , "**Tangri taolo**", "**janobi Haq**", "**Parvardigor**", "**Xudo**"kabi yigirmaga yaqin Xudoning nomlari qo'llanadi. Bular diniy terminlarga yorqin misol bo'la oladi.

Ma'lumki, shariat barcha musulmonlar uchun majburiy. O'z navbatida, shariatga bog'lanmagan haqiqat natijasiz va samarasizdir, deyiladi tasavvufda. Shu ma'noda, manbalarda tariqat ilmi sohiblari, avvalo, shariat ilmini qattiq tutganliklari qayd etiladi. Jumladan, qodiriya –tariqat silsilasining dastlabgilaridan bo'lib, asoschisi Abdulqodir Giloniy (XII asr) shariat ahkomlaridan zarracha chetga chiqmay, "Ahli

sunna val jamoa” mazhabida yurgan. Bahouddin Naqshband ham birinchi galda o’z sulukining sunnat va hadis yo’liga sodiq qolishini qat’iy ko’rsatib o’tgan. Bular tariqatda shariat terminlari keng qo’llanishini anglatadi. Biroq tariqat hamma uchun emas, balki alohida kishilarning ixtiyoriy riyozat yo’lidir. Ushbu ikki hodisa :

- 1) Shariat terminlarining tariqatda keng qo’llanishi;
- 2) Tariqat xoslarning yo’li ekanligi, ta’kidlab o’tilganidek, shariatga doir so’zlar tariqatda matnning mazmuniga ko’ra sha’riy yoki tasavvufiy ma’noga ega bo’lishi mumkinligidan dalolat beradi.

Masalan, shariatda ham, tariqatda ham **qur’on, hadis, sunnat, mazhab, namoz** kabi ko’plab so’zlar birdek o’z ma’nosida qo’llanadi. Ammo, “*kofir*” atamasi shariatda nisbatan soddaroq ma’noga ega, ya’ni dinsiz, islom dinida bo’lmagan inson; tariqatda esa talabning kuchayishi orqali unafs ma’nosida ham keladi: nafs -jig’ildon , dunyoga o’chlik bo’lib, ayni hodisa musulmonga ham, g’ayridinga ham –barchasiga taalluqli. Biroq kofirda nafs ustunlik qilishi ma’lum. Musulmonning nafs g’olib kelsa, u yaratganning emas, nafsning quliga, ya’ni kofirga aylanadi. Shariatda “imom” –mansab, lavozim; namozda safning boshida turuvchi, namozni boshqaruvchi: masjidning imomi. Tariqatda esa maqom, daraja, ma’lum bir yo’nalish, sulukning asoschisi ma’nosini ifodalovchi so’z: Imom G’azzoliy, Imom Shofe’iy, Imom Buxoriy –moddiylikdan ustun, ma’naviy yuksak insonlar. Shariatda faqir –kambag’al ma’nosida; tariqatda esa maqom –ma’naviyyuksaklikning muayyan bosqichi nomi. Tohir Malik asarlarida ko’proq sha’riy terminlarning birinchi holatiga duch kelamiz. Uning asarlarida sha’riy terminlar deyarli tasavvufiy ahamiyat kasb etmaydi. Faqat ayrim o’rinlarda (masalan, “Falak” qissasida “*pir*”, “*qalandar*”, “*darvesh*” kabi)tasavvufiy terminlarga duch kelamiz.

Ma’lumki, islomda dinning asosi –shariat. Demak, diniy so’zlarning asosi sha’riy terminlardir. Yozuvchi asarlarida aynan biz shariat bilan bog’liq terminlarni uchratamiz. Masalan, yozuvchining “Nomus” hikoyati aynan sha’riy mavzuda yozilgani bois unda sha’riy terminlar keng ko’lamda aks etgan. Shuningdek, “Falak” qissasida ham sha’riy terminlarni uchratishimiz mumkin. Lekin yozuvchining “Alvido, bolalik” romanida yuqoridagi ikki asarga nisbatan diniy terminlar kam

qo'llangan. Diniy terminlarning qo'llanish o'rni yozuvchining "Nomus" hikoyatida ko'p va bularning barchasi islom dini bilan bog'liq.

Diniy so'zlarning tadqiqi bilan shug'ullanar ekanmiz, eng avvalo, ularning leksik-semantik ma'nolarini o'rganib chiqish, o'z yoki ko'chma ma'noda qo'llanganligini aniqlash, ma'nodoshlari, antonimlarini topish, qisqacha qilib aytganda, leksik tahlil qilishimiz shartdir. Keyingi bosqichda esa yozuvchi asarlarida aynan qaysi diniy so'zlar va iboralar ko'p qo'llangan va salmog'ini belgilash muhim.

Shuni ta'kidlash joizki, diniy so'zlarning leksik ma'nolarini izohlash orqali "islomiy atamalar lug'ati"ni tuzish va chop ettirishni leksikografiyaning vazifalaridan biri sifatida dolzarb masalaga aylantiradi. Shu paytgacha o'zbektilida to'kis islomiy lug'at chop etilmagan. To'g'ri, "Islom ensiklopediyasi" chop etilgan, lekin undagi atigi mingga yaqin atamalar ensiklopediya uchun yetarli emas.

Yozuvchi ijodini o'rganish orqali o'zbek tili leksikasida diniy-islomiy so'zlar tizimining o'ziga xos tarkibi; diniy-islomiy so'zlarning o'zbek tilidagi tutgan o'rni va maqomi; tilning diniy-islomiy so'zlar bilan bog'liq imkoniyatlarini istiqbolda yirik plandagi tadqiqot obyektlari qatorida o'rganilishi lozimligidan dalolat beradi.

Yozuvchi asarlaridagi diniy-islomiy so'zlarning o'ziga xos tarkibi haqida to'xtaladigan bo'lsak, uning ijodida islom dini ahkomlari bilan bog'liq shariat teminlari, islomiy farzlarga doir terminlar, shuningdek, islom diniga bog'liq bo'lgan tushunchalar va nutqimizda faol ishlatiladigan diniy iboralarni qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz.

1.2. "Alvido, Bolalik" romanida qo'llangan diniy atama va iboralar xususida

Tohir Malik ijodida **"Alvido, bolalik: yoxud to'rt taqdirning to'liq bayoni"** asari alohida o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.⁴Yozuvchining o'zi asar boshlanmasida bu asarning dastlab "o'tgan asrning saksoninchi yillarida" yozganini ta'kidlaydi. Bu asar avval qissa shaklida, so'ng o'zgartirishlar kiritilgan

⁴ Tohir Malik. Alvido, bolalik. Roman. –T.:Yangi asr avlodi, 2015-y

holda roman janrida yaratildi. Biz aynan shu romandagi diniy soʻzlar va iboralar bilan tanishib chiqamiz.

Avvalo, asarningkirish qismiga eʼtiborimizni qaratsak. Asar barcha asarlarda boʻlgani kabi **“Bismillahir Rohmanir Rohiyim!”** deya boshlanadi. Muallif Qurʼoni karimdagi **“Yunus”** surasidan (“...Albatta, Alloh odamlarga hech zulm qilmas, lekin odamlar oʻzlariga zulm qilurlar”); **“Nahl”** surasidan (“... zulm qilganlar azobni koʻrgan vaqtlarida ulardan u yengillatilmaz va ularga muhlat ham berilmaz”); **“Niso”** surasidan (“... yomonliklarni qilib yurib, birlariga oʻlim yetganida: “Endi tavba qildim”, deganlarga va kofir hollarida oʻlganlarga tavba (qaytish) yoʻq. Ana oʻshalarga alamli azoblarni tayyorlab qoʻyganmiz”), shuningdek, **“Hadisi qudsiy”** dan (“Ey odam farzandi ! Biror zaif insonga zulm va zoʻravonlik qilishga nafsing seni chorlasa, undan burun hamisha oʻzingdan koʻra qudratliroq Zot borligini esla. Oʻsha Zot seni haligi zaif insondan zoʻrroq qilib qoʻygani kabi, xohlasa uni ham sendan zoʻrroq qilib qoʻyishi mumkin”) parchalar keltiradi.

Muallif izohida yozuvchi “shafqatli va mehribon **Alloh taolo**”, “bashoratchi, ogohlantiruvchi, dinga daʼvat etuvchi **Rasul**”, “islom dinini quvvatlantirish yoʻlida xizmat qilgan **sahobalar** va ularga boshpana bergan **ansorlar**”ga duo va salomlar yoʻllaydi.

Alloh taolo –islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch, xudoning nomi.

Rasul –Ollohning vakili, elchisi (Muhammad paygʻambarimizning sifatidir)⁵.

Sahobalar –Muhammad paygʻambarning safdoshlari, yaqin yordamchilari demakdir. Keyinchalik uni bir marta boʻlsa ham koʻrgan kishilar boʻlsa, sahobalar deyilgan⁶.

Ansorlar –(arabcha yordamchilar, safdoshlar) -Muhammad (s.a.v) sahobalari bir tabaqasining nomi⁷. 622- yil Makkadan Madinaga koʻchib borgan musulmonlar (muhojirlar)ga va Muhammad (s.a.v)ga yordam bergan hamda islom dinini qabul

⁵Oʻzbek tilining izohli lugʻati.5 jildli. Toshkent:2006-2008. 3-jild 356-bet

⁶Oʻzbek tilining izohli lugʻati.5 jildli. Toshkent:2006-2008. 3-jild 469-bet

⁷Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004 33-bet

qilgan madinalik Avs va Hazraj qabilalarining a'zolari. Ansorlar muhojirlar bilan birga ilk musulmonlar jamoasini tashkil etgan. Ansorlar bilan muhojirlar o'zaro munosabatlarini bitimlar orqali belgilagan. Ansorlar Badr jangidan e'tiboran Muhammad (s.a.v)ning Makka mushriklariga qarshi yurishlarida faol ishtirok etishgan. Harbiy o'lja taqsimlanganda muhojirlardan keyingi navbatda turganlar. Keyinga siyosiy voqealarda ham ansorlarning o'rni katta bo'lgan. Muhammad (s.a.v) vafotlaridan so'ng ular o'z ichlaridan xalifa saylashga urinib ko'rganlar. Lekin xalifalik ko'pchilik ovozi bilan Abu Bakr Siddiqqa nasib bo'lgan. Ansorlar hadis roviylari sifatida ham mashhur.

Yozuvchi asarda **“xayrli duo”**–kimsaga yaxshilik tilab qilingan duo. *Mahalla qariyalaridan xayrli duo olmasdan ish boshlanganiga ko'pchilik g'ashlangan bo'lsa-da, indashmadi* (28-b);

“harom pul” -shariat hukmiga muvofiq yeyish, ichish, foydalanishga muvofiq bo'lmagan, halol bo'lmagan pul⁸. *Harom pulga qurilsa shunaqa bo'ladi*(29-b);

“yetim haqi”-adolat yuzasidan yetimlarga tegishli bo'lgan nasiba. *Yetim haqiga ko'z olaytirdingmi, demak, haqini to'lashing kerak.* (60-b);

“do'zax azobi”, “do'zax alangasi”–jahannam ,ya'ni, gunohkor bandalar qiynoqqa solinadigan narigi dunyodagi joy alangasi va azobi. *Mana bunaqa balanddevor-u temir panjara yordamida do'zax azobi va do'zax alangasidan saqlanib bo'lmaydi* (38-b) kabi diniy so'z birikmalari bilan birgalikda :

“oq qilmoq” –o'z farzandini la'natlamoq, nafrat o'qib undan yuz o'girmoq, voz kechmoq⁹, islom dinida eng og'ir gunoh nomlaridan biri. *Biroq onasi vafot etganida unga xabar berilmadi. Bu oq qilgandan ham battar edi*(43-b);

“oq fotiha bermoq” –biror ishni bajarishga kirishish uchun rozi bo'lib, mamnunlik bilan beriladigan ruxsat, ijozat¹⁰. *Ota-onasi uning bu ishidan norozi bo'lishdi, oq fotiha berishmadi* (43-b);

⁸O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildli. Toshkent: 2006-2008 5-jild 510-bet

⁹O'zbek tilining izohli lug'ati 5 jildli. Toshkent: 2006-2008 3-jild 176-bet

¹⁰O'zbek tilining izohli lug'ati 5jildli. Toshkent: 2006-2008 4-jild 361-bet

“iymonga kirmoq” –iymon Ollohga ishonch, e’tiqod demak, iymonga kirmoq deganda esa shariat talablariga javob berish, taqvodor bo’lish, din man etgan ishlarni qilmaslikdir. *Do’stlari iymonga kirib, haj qilib kelishdan avval ham, keyin ham uni da’vat qilishdi* (76-b); kabi iboralarni ham qo’llaydi.

Asarda *“tavba”* diniy termini nisbatan ko’p qo’llangan. (masalan, *“... astoydil tavba qilganni Alloh kechiraman, deb turganda ota-ona kechirmaydimi?”*, *“...Nikohsiz eri qamoqdaligida nochor qolgan Hanifa ota-onasi huzurida tiz cho’kibtavbalar qildi, yodbordi”*, *“ ” va hokazo*). *“Tavba”* diniyterminilug’atda *“qaytmoq”* ma’nosini anglatadi. *“Tavba qildi”* deganda kishining nimadandir qaytishi tushuniladi. Sha’riy termin sifatida esa *“tavba”* dinimiz man etgan narsalardan qaytib, buyurgan amallarni ado etishdir.

Tavbaning avvali va nihoyasi bor. Tavbaning avvali katta va kichik gunohlardan, noo’rin shubha-gumonlardan, o’zicha *“tavbada sodiqman”* deya o’ylashdan va qalbiga o’rnashgan qutqulardan tavba qilishdir.

Tavbaning nihoyasi esa hatto bir zum Allohning zikridan g’ofil bo’lsa tavba qilmoqdir. Komillikka erishganlar e’tiborida kimki bir onlik g’aflatning gunohligini e’tirof etsa, tavbasi sahih bo’ladi. Chunki Odam alayhissalom gunohini e’tirof etib, pushaymon bo’lganini Alloh taolo bizga xabar berdi. Ulamolar: *“Gunohni tamoman tark qilish va gunohga boshqa qaytmaslikka jazm etish tavbaning shartlaridandir”*, deganlar. Tavba bilan bandaning gunohi mag’firat etiladi. Alloh taolo shirkni va bandaning bandadagi haqlarini kechirmaydi. Tavba banda maqomining yuksalish tamalidir. Asossiz bino mavjud bo’lmaganidek, tavbasiz kishining holva maqomi bo’lmaydi. Shayx Ibrohim Matbuliy hazratlari tavbada sodiq va sobit bo’lishga tashviq etadi. Chunki kishining tavbadan og’ishi noxush holatlarga yetaklaydi. Tavbadan ozganning iymoni sho’r tuproq va g’ishtlar bilan qurilgan binoga o’xshash zaif bo’ladi. Alloh taoloning ma’sumi akbar (muhofaza etilgan eng buyuk zot) Hazrati Payg’ambarga (s.a.v) *“Siz va siz bilan birga tavbaqilganlar sizgabuyurilgani yanglig’ sobit bo’lingiz”* (*“Hud”* surasi 112-oyat) degan amri ham aynan tavba zikridadir¹¹.

¹¹ Islomiy atamalar lug’ati Toshkent: 2007

Demak, asarda “tavba” soʻzidan yozuvchi bejizga foydalanmagan. Bu diniy termin ham mohiyatan asar mazmuniga mos qoʻllangan.

Yozuvchining “tavba” soʻzi bilan bogʻliq qoʻllagan iboralari ham mavjud. Masalan, *”Ergash “tavbasiga tayanib oʻtirgan” oʻgʻliga ijozatberdi”*.(207-b) Ushbu parchada **“tavbasiga tayanib oʻtirgan”** iborasi “pushaymon boʻlgan” maʼnosida qoʻllangan.

Ayrim oʻrinlarda asarda diniy terminlar antonim holatda qoʻllangan. Masalan, quyidagi parchaga eʼtiborimizni qaratsak:

“...Shaytonga bandi boʻlib umr kechirish unga xush yoqdi. Bu umrning oxiri xorlik va azobli oʻlim ekanini bilsa ham , Rahmonga bandi boʻlib najotga intilishni oʻylamadi”¹². Ushbu jumlada *“shaytonga bandi boʻlmoq”* iborasi *“Rahmonga bandiboʻlmoq”* diniy iborasiga zid qoʻllanadi.

Asarda har doim ham diniy soʻzlar mazmuniga koʻra shaʼriy termin sifatida qoʻllanavermaydi. Yozuvchi biz kundalik hayotimizda diniy soʻzlarni qanday qoʻllasak, obrazlar nutqida shunday umumisteʼmoldagi soʻz koʻrinishida qoʻllaydi. Masalan:

“...Choʻntagida besh ming dollar bilan kirib kelgan xaridorning “yetti qavat terisini shilib olishga” ahd qilgan oʻgʻrilarning biri arqonni gʻoyat uzun tashlagan edi”(55-b) gapida *“ahd qilmoq”* diniy atama sifatida “soʻz berish” “soʻzda turish” kabi maʼnolarni anglatadi. Ushbu parchada esa “maqsad qilmoq” maʼnosida kelgan.

Quyidagi parchada esa “ahd” “soʻz berish” maʼnosida qoʻllangan : *“...Qamariddin shu qarorga keldi. Aql nuqtayi nazaridan qaralganda, bu “ahd” notoʻgʻri, biroq yaxshilar mehriga muhtoj, qalbi zada bola uchun esa birdan-bir toʻgʻri yoʻl shu edi.”*(128-b)

Romanda keltirilgan sheʼriy parchalarda ham diniy terminlardan maʼlum bir maqsadda foydalanilgan. Unda yozuvchi diniy soʻzlarni qoʻllash orqali oʻquvchini mushohada qilishga undagan.

“...Pul boʻlsa, pul berib –*iymon* olasan,

Pul boʻlsa, pul berib –*viydon* olasan.

¹² Tohir Malik. Alvido, bolalik. Roman. –T.:Yangi asr avlodi, 2015-y 49-bet

Bazm pul, *viydon* pul, xotinlar ham pul,

Shariat, qosh-u ko'z, shirin so'z ham pul"(67-b). Zeroki, ushbu parchada "iymon", "viydon", "shariat" diniy so'zlari asardagi o'g'rilar tilida ahamiyatsiz tarzda qo'llangan. **Iymon** –Ollohga ishonch, e'tiqod demakdir. Islomda faqat diniy ta'limotga bo'lgan e'tiqod va tushuncha sifatida iymon tan olinadi. Shuningdek, iymon e'tiqodga qaraganda chuqurroq mazmunga, kengroq miqyosga egadir. Lekin hozirgi vaqtda iymon tushunchasi viydonlilik, soflik, poklik, halollik, ishonch kabi dunyoviy ma'nolarda ham ishlatilyapti. **Viydon**–kishining o'z xatti-harakati, qilmishi, yurish-turishi uchun odamlar, jamoatchilik oldidagi ma'suliyat hissi, insoniylikning asosiy belgilaridan biridir¹³. **Shariat** esa islom huquq tizimida musulmonlarning Qur'on asosida ishlab chiqilgan diniy, jinoiy va fuqarolik qonun va qoidalar majmui¹⁴ hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, asarda o'g'rilar hayoti tasvirlangani bois yozuvchi o'g'rilar nutqida ba'zan islomiy leksik birliklarni ularning izohiga moslab talqin qiladi. Masalan, "*adolat*" so'zi islomiy leksik birlik sifatida "har ishda haqni ko'rmoq va o'rta yo'lni tutmoq", "haqliga haqqini bermak, haqsizdan qochish", "zulmning ziddi", "qonun oldida barobarlik" ma'nolarini anglatadi. Bu so'z asarda o'g'rilar nutqida esa ular chiqargan hukmning to'g'riligini isbotlash nuqtai nazaridan qo'llanadi. Masalan, Bo'ron Jasurning behisob boyligini zo'ravonlik bilan qo'lga kiritayotganda "adolat"dan so'z ochadi:

"...-shunaqasanlar , Adolatdan gapirilsa, tushunmay qolasanlar. Xudo senga juda ko'p boyluk berdimi ? Berdi! Sen rosa rohatlanding. Endi rohatlanish navbatiboshqalarga ham tegsin..."(70-b).

Ushbu parchada Bo'ron Jasurning boyligini tortib olishini adolatdan deb hisoblamoqda.

Yozuvchi ba'zan diniy so'zlardan turli ko'rinishdagi birikmalar yasab mazmunini o'quvchi e'tiboriga havola qiladi. Masalan, "**shayton**" so'zi bilan bog'liq birikmalarga e'tiborimizni qaratsak:

¹³O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 lidli. Toshkent:2006-2008 1-jild 459-bet

¹⁴O'zbek tilining izohli lu'gati.5 jildli. Toshkent:2006-2008 4-jild 547-bet

1.“Shaytonga bandi bo’lib umr kechirish unga xush yoqdi”(49-b). Ushbu jumladagi **“shaytonga bandi bo’lmoq”** diniy ibora bo’lib, shaytonning yo’liga kirmoq, shariat amallarini bajarmaslikni anglatadi;

2.“Aqlli odamlar “shaytonning peshobi” deb rad etuvchi bu ichimlikning xalqumdan o’tgan har bir ho’plami o’sha muqarrar azob sari qo’yilgan katta qadam ekanini Qamariddinga birov tushuntirmagan bo’lsa ne badbaxtlikdir?!”(107-b) Ushbu gapdagi**“shaytonning peshobi”** birikmasi esa spirtli ichimlikka nisbatan ishlatilgan tasviriy ifoda hisoblanadi;

3.“Ajablanarlisi shuki, tushida ko’radigani bu oq shayton ko’pincha adasiga o’xshab ketadi”(184-b).**“Oq shayton”** deya yozuvchi o’xshatish qilgan va bu birikma yomon yo’ldan qiyin bo’lsa-da, qaytish imkoni bo’lgan kishini yo’ldan toydiruvchi shayton ma’nosini bildiradi.

4.“Oq shayton yo’lida xor bo’lsang ham tirik chiqasan-u, ammo qora shayton yo’lida o’lishing aniq”(184-b).**Qora shayton**hamo’xshatish bo’lib, yozuvchining fikricha, bunday toifadagi shaytonlar yo’liga kirgan kishi ortga qayta olmaydi;

5.“Mana, hozir ikki shayton quliga aylangan yigitcha ko’chada hissiz ravishda ketib boryapti”(185-b).**“Shayton quli”** birikmasi ham o’xshatish bo’lib, bunday kishilarga shayton xo’jayinlik qiladi, deganidir;

6.“Shaytonga qo’l bergan banda yana nima qilishi mumkin ?”(279-b)**“Shaytonga qo’l bermoq”** iborasi bu yerda diniy-islomiy ibora bo’lib kelgan. Kishining o’z xohishi bilan shayton yo’liga kirishi , shayton buyurgan amallarni bajarishi shaytonga qo’l bermoqdir;

7.“Nihoyat gap tugagach, qadahlar urishtirilib, shaytoniy nafsning amri bekam-u ko’st bajarildi”(295-b). **“Shaytoniy nafs”** deyilganda shayton buyurgan istaklarga mute bo’lgan nafs tushuniladi;

8.“Tug’ilishi bilan shaytonning yo’rgagiga yo’rgaklangan odamdan bundan o’zgacharoq gap kutishning o’zi nodonlik bo’lur edi (334-b).” **shaytonning yo’rgagi”**deya yozuvchi diniy so’zni ko’chma ma’noda qo’llagan va shayton talablarini go’dakligidan bajargan shaxsga nisbatan ushbu birkmani ishlatgan. Ta’kidlash kerakki, shayton odamlarni din yo’lidan ozdiruvchi, ularni

gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig'idir¹⁵.

Diniy terminlar qo'llanganda ba'zan "xatolik"ka ham yo'l qo'yilgan. Masalan, "arvoh" diniy termini "ruh" so'zining ko'pligi, ya'ni *ruhlar* ma'nosini anglatadi. Yozuvchi lekin ko'p o'rinlarda birlikdagi marhum shaxsga nisbatan arvoh diniy terminini qo'llab ketaveradi:

"Otasi ham o'lib ketdi. Hozir har kuni tushimga kiradi. Arvohidan qo'rqaman.";

"Qaysi ko'chaga kirsang ham o'sha yerda meni uchratasan. O'lib ketsam, arvohimni uchratasan".

"Arvoh" diniy termini diniy tasavvurlarga ko'ra faqat odam tirikligida hayotida u bilan bo'ladigan, vafotidan keyin tandan chiqib, abadiy mavjud bo'ladigan g'ayrimoddiy asos, ruh ma'nolarini anglatadi¹⁶. "Ruh" diniy termini sonida to'g'ri qo'llangan holatlari ham bor:

"Faqat sening tanangni emas, ruhingni ham xumga tiqishgan." (246-b)

Umuman, yozuvchining "ruh" diniy termini o'rnida "arvoh" diniy terminini qo'llashini xatolik deb bo'lmaydi. Chunki o'zbek tilida ko'pincha arab tilidan o'zlashgan so'zlarning ko'plik shakli ham birlikda qo'llanib ketilaveradi ("axborot", "ma'lumot" va h.k). Badiiy asarda kishilarning nutqida odat tusiga kirgan so'zlar o'z holicha kiritilishi mumkin. Chunki badiiy til faqat adabiy til me'yorlarini emas, balki shevaga xos so'zlarni, kasbiy terminlar, tarixiy so'zlar, jargonlar va shu kabilarni ham qamrab oladi.

Romanda ko'p hollarda diniy va sha'riy terminlar ko'chma ma'noda qo'llangan holatlar ham bor. Bular "azroil", "joynamoz", "aqida" diniy terminlaridir.

"Azroil" diniy termini islom dinida to'rt bosh farishtadan biri, jon oluvchi farishta, ajal farishtasi ma'nolarini anglatadi¹⁷. Ushbu gapda esa ko'chma ma'noda qo'llangan:

¹⁵O'zbek tilining izohli lug'ati 5 jildli. Toshkent:2006-2008 4-jild 534-bet

¹⁶O'zbek tilining izohli lug'ati 5 jildli. Toshkent:2006-2008 1-jild 94-bet

¹⁷O'zbek tilining izohli lug'ati 5 jildli. Toshkent:2006-2008 1-jild 51-bet

“Azroilning jiyanlariga bu odam emas, Qamariddin ro’para qilgan edi.”(187-b) “Azroilning jiyanlari” deya yuqoridagi gapda o’xshatish qilingan. Ya’ni, asarda o’g’rilar to’dasiga nisbatan shu ibora ishlatiladiki, ularni ajalning sherigi ekanligini, jon olishga moyilligi kuchliligini tasviriy ifoda ko’rinishida beradi. Asarda “azroil” diniy termini o’z ma’nosida ham qo’llangan :

“O’lim farishtasi jonlarini oladigan paytda qanday azoblanishlarini bilishmaydi.”(377-b) Ushbu gapda “azroil” diniy terminining tasviriy ifodasi (“o’lim farishtasi”) ishlatilgan.

Yoki “aqida” diniy termini “e’tiqod, ishonch ; tushuncha ma’nolarini anglatib e’tiqod qilinadigan narsa, xatti-harakat, u haqidagi gap ma’nolarini anglatadi¹⁸. O’g’rilar nutqida ular yaratgan qonun-qoidalar “aqida” deb beriladi:

“Oradan talay yillar o’tgach, bu xulosa “dunyoda hech qanday adolat yo’q, unga umid qilma va boshqalarga adolatli bo’lishga urinma !” degan aqidasiga aylandi. Qamoqdaligida unga “Bo’ron” deb laqab qo’ygan ustoz bu “aqida”sini yanaboyitdi”.(213-b) Ushbu parchada “aqida” so’zining “haqiqatga zid, ko’r-ko’rona qabul qilinadigan fikr, qoida” ma’nosi qo’llangan.

Shuningdek, “joynamoz” sha’riy termini ham o’xshatish ma’nosida qo’llangan. Aslida “joynamoz” sha’riy termini “namoz gilamchasi, namoz joyi, namoz o’qish uchun solinadigan maxsus gilamcha, palos”¹⁹ma’nolarini anglatadi.

“She’r –mening joynamozim, sahna sizniki... Sahna joynamozi Keldiyorga nasib etmadi”. (352-b) Ushbu gapda “she’r”, “sahna” so’zlariga nisbatan ko’chma ma’noda “joynamoz” so’zi qo’llangan.

Diniy terminlarni qo’llashda ba’zan og’zaki nutqda ishlatiladigan fonetik variantini qo’llash o’rinlari ham uchrab turadi. Masalan, “masjid” termini “machit” ko’rinishida, “ilohim” diniy termini esa “iloyim” shaklida qo’llangan:

“Yana bitta savolim bor: siz cherkovlarni, machitlarni “zulmat uylari” dedingiz” (300-b);

¹⁸O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. Toshkent:2006-2008. 1-jild 126-bet

¹⁹O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli.T:2006-2008. 2-jild 101-bet

“Sanqi o’rtog’ing kelgani yo’q hali. Bokslariga iloyim qirg’ingina kelsin.”(255-b); Bu o’z navbatida yuqorida ta’kidlaganimizdek, badiiy til talabi bilan yuz bergan. Chunki har ikkala gapda ham diniy terminlar personajlar tilida qo’llangan. Muallif nutqida adabiy til me’yorlariga amal qilinadi.

Diniy terminlarning sinonimlaridan maqsadli foydalanish ham mavjud. Xususan, **“Xudo”** diniy termini bilan bog’liq sinonimlar ko’p qo’llangan.

1. “Xotinidan qutula olmay yurgan bo’lsa, ishini **Xudoning** o’zi o’nglab qo’ygandir, a ?” (12-b) ;

2. **“Yaratgan Zot** qonunlariga itoat etgani o’laroq yashashi kerakligini bilganida edi.” (49-b) ;

3. **“Rahmonga** bandi bo’lib najotga intilishni o’ylamadi.” (49-b) ;

4. “Oqil banda hamisha **Allohdan** rizolik istab yashaydi.” (211-b) ;

5. “Qasos olovi aql ko’zini ko’r qilgan nodon yigit **Rabbiga** shart qo’yib, da’vo qilib, haq talashib turgan ondayoq iblis uning qalbiga ega chiqqan edi.” (211-b) ;

6. “Birovning tilidan uchayotgan haqorat **Tangri** tomonidan buzuqligi uchun hozirlangan jazoning boshlanishi ekanini ham barcha biladi.”(273-b) ;

7. “Ustozi shayton, iymoni pul bo’lgan bandaga **Tangri taolo** bundan boshqa qanday mukofot berar ekan ?” (279-b) ;

8. “Axtaraman **Parvardigorni**, duch keladi nuqul boshqalar.” (420-b).

Shuningdek, “xudo” so’zi bilan bog’liq bir qancha diniy iboralar ham asarda keltirilgan:

1. “Men **Xudo urgan** bandaman, bilasiz-ku !” (411-b) “Yomon, razil, yaramas kimsa” ma’nolarini bildiruvchi ibora;

2. **“Xudo yog’dirayotgan baxtga** ega bo’lish uchun kishi **Haq talabidagifazilatlariga** ega bo’lishi kerak” (404-b) ;

3. “Bu yil **xudo xohlasa** “narodniylikka” tavsiya etishsa, shu odamning bitta qo’ng’irog’i taqdirimni hal qilib yuboradi.” (402-b) ;

4. **“Xudoga shukr**, maktabimiz hozir ancha tinch” (367-b) Biror narsaga erishilganda aytilib, mamnunlik, shukronalikni bildiruvchi ibora;

5.“O’shanda, hali qog’ozga tushmagan satrlar tilga ko’chganda marsiyaning xotimasi shunday bo’lishini **Xudodan boshqa kim ham bilardi ?**” (351-b) “Kim ham biladi” degan ma’nodagi ibora;

6.“Avval ukaxonni egalariga topshiraylik” deganda **Xudoni tanimaydigan** Kalamush Allohni nazarda tutmagan edi.” (338-b) “Xudoni bilmaydigan, iymonsiz kishilarga nisbatan ishlatiluvchi ibora”;

7.“Nima deb qo’ydi-ya ? **Xudo asrasin**” (331-b)“Xudo asrasin” biror noxushlik, falokat, zararli kimsaga yo’liqmaslikni tilab aytiladigan iboradir;

8.“**Ollohning irodasi** shu ekan-da, sal mastlik qilibmi, oyoqlari toyibmi, suvga tushib ketibdilar.” (296-b) “Xudoning xohishi, uning hukmi, taqdiri azal ma’nolarida qo’llanuvchi ibora”;

9.“Mendan qaytmasa, **Xudodan qaytsin.**” (294-b) “xudo tomonidan yaxshilikka uchrasin,xudoning nazari tushsin ma’nolarida keluvchi ibora”;

10.“**Xudo berib** topdingmi, o’yna, kul, soch.” (292-b) “Xudo berdi” –“baxtli-davlatli bo’ldi” yoki “nima istasa, shuni qila oladi” kabi ma’nolarni anglatadigan ibora;

11.“Kichkinaligida **Xudo necha marta qaytarib bergan-a,** bolaginamni.”(258-b) “joni asrab qolingani, o’limdan qaytgan” insonlarga nisbatan ishlatiluvchi ibora;

12.“Nimaga **Xudoning qahriga** uchrabman, bilmayman.” (257-b) “xudoning bandadan norozi bo’lishi, g’azab qilishi”, “xudodan topdim” iborasi ma’nodosh qo’llanadi;

13.“**Xudodan so’rasak,** bizga ham vaqt topilib qolar.” (204-b) “yaxshi tilak va istaklarni xudodan iltijo qilib so’rash”.

Shu o’rinda aytish joizki, asarda “xudo” so’zi ma’nodoshlari bilan birgalikda eng ko’p qo’llangan diniy so’zdir (86 marta qo’llangan).

Umuman, asarda qo’llangan diniy so’zlar miqdori haqida gapiradigan bo’lsak, ular to’qsonga yaqin so’z va iboralarni o’z ichiga oladi.Bu diniy so’zlarning ayrimlari leksik jihatdan sinonimlari va antonimlari bilan birgalikda qo’llangan. Masalan :

“O’sha “ayrim dorilar”ni, og’aynijon, **narigi dunyoda** bo’lsa ham topib kelasiz.” (440-b) ;

“Ruhining esa foni dunyoda qilgan gunohlari uchun **boqiy dunyo** azoblariga giriftor etilishini tasavvur qilganida yoki ko’z oldiga keltirganida shu onning o’zida yuragi yorilib jon berardi.” (454-b) ;

“O’zini bu dunyo balosidan ehtiyotlashga aqli yetgan banda **u dunyoda** kutilajak azob sellaridan ihota qilishni o’ylamaydimi ?” (38-b) gaplaridagi ajratib ko’rsatilgan so’zlar ma’nodosh diniy birikmalarga misol bo’ladi.

Yoki :

“**O’tganlar**”ning joyi jannatda bo’lsin, qani, dasturxonga qarang.” (296-b) ;

“Aslida **marhumning** bolasi nechtaligi uni mutlaqo qiziqtirmasdi.” (203-b) gaplaridagi “o’tganlar” va “marhum” bir-biriga ma’nodoshdir. Faqat bunda bittasi diniy so’z (“marhum”) bo’lsa, ikkinchisi (“o’tganlar”) diniy so’z ma’nosidagi lisoniy –nutqiy birlikdir.

Asardagi diniy so’zlarning antonimlari haqida to’xtaladigan bo’lsak, ularning *leksik*:

“Men **do’zaxda** kuyishdan afsuslanmayman, shu muttahamlarga ulfat bo’lish alam qiladi.” (333-b)

“Yaqinda ikki yonidan qanotlar o’sib chiqib farishtaga aylanadi-yu, to’g’ri **jannatga** qarab uchadi.”(334-b) (do’zax –jannat) ;

“**Shaytonga** bandi bo’lib umr kechirish unga xush yoqdi. Bu umrning oxiri xorlik va azobli o’lim ekanini bilsa ham, **Rahmonga** bandi bo’lib najotga intilishni o’ylamadi.” (49-b) (shayton –rahmon);

morfologik:

“**Iymonli** odam bunday qilmaydi.”(426-b) -“Ota-onasiz o’sayotgan bolalarning hayot falsafasi, hayot haqidagi, **beiymon** otalar, bevafo onalar haqidagi tushunchalari ancha barvaqt shakllanadi.” (268-b);

“Dilfuza adasini ko’rishi bilan o’rnidan turdi, hukmni kutgan **gunohkor** singari boshini egdi.” (313-b) - “Shunday ekan, mutlaqo **gunohsizlar**, tuhmat yoki fitna qurbonlari nima deyishsin?”(269-b);

“**Noshukurlikning** bu olovli toshlari Risolatning tilidan endigina uchayotgani yo’q...” (257-b) - “Iymonning yarmi **shukur**, yarmi sabr ekanini insof egalaridan biri yaxshilab tushuntirib qo’yganida o’g’lining o’rtog’iga bu gaplarni aytmagan bo’larmidi.” (257-b) va

frazaleogik:

“Men oyimga “Ma’sudga **oq fotiha bera qoling**”, deb yozganimda “Ukang uylanmoqchi bo’lgan qiz oqsoq ekan, shuning uchun unamadik”, degan javob olgan edim” (460-b) - “Biroq onasi vafot etganida unga xabar berilmadi. Bu **oq qilgandan** ham battar edi” shakllariga duch kelamiz.

Asarda qo’llangan diniy so’zlarni kichik-kichik uyalarga ham birlashtirishimiz mumkin.

Diniy-islomiy mansab nomlari:

“*Xoja*” – “Qamariddin ularga **xoja**, ular esa qul edi.” (132-b) *Xoja* –tasavvufda tariqat mashoyixlariga beriladigan unvon hisoblanadi. Bu gapda ko’chma ma’noda qo’llangan;

“*Domla*” – “**domlaga** borib nikoh o’qitasiz. To’y qilishingiz shart emas.” (174-b) *Domla* –aslida “domulla” so’zining so’zlashuv tilidagi shakli bo’lib, diniy maktab muallimi, madrasani bitirgan mulla kishi²⁰ma’nolarini anglatadi.

“*Imom*” – “Shom qorong’usi tushmay , adasining amakivachchasi masjid **imomini** boshlab keldi” (310-b) *Imom* –namozda jamoatning oldida turib, namozni boshqaruvchi, ularni o’ziga iqtido ettiruvchi shaxs, islom peshvolarining unvoni²¹ma’nolarida keladi;

“*Mulla*” – “guvohlar ko’paymasin”, degan maqsadda ehtiyot chorasini ko’rib, **mullani** chorlashmagan edi.” (387-b)*Mulla* –o’qimishli, taqvodor odam sharqda madrasa ta’limini ko’rgan shaxslarga nisbatan shu so’z qo’llangan²².Asarda “mulla” so’zi bilan bog’liq ibora ham qo’llangan:

“Kelmay go’rga borarmidi, keladi **mulla mingan eshakday** bo’li-i-b.”(255-b)
“Mulla mingan eshakday “ iborasi “*o’ta yuvosh*” ma’nosini anglatadi.

²⁰O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008.1-jild. 642-bet

²¹O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 2-jild. 203-bet

²²O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 2-jild. 634-bet

Diniy-islomiy farz nomlari :

“*Namoz o’qimoq*” –“...Men sizga bir misol aytaman: mening bobom **namoz o’qiydilar...**” (300-b) Namoz –islomning asosiy shartlaridan biri, Xudoning bandalariga farz qilib qo’yan, shuningdek, Alloh taolo bergan ne’matlarga bandasining shukronasidir. Qur’oni karimda namoz o’qish amr etilgan ko’plab oyatlar bor (mazmunlari):

“*Namozni mukammal ado etingiz va zakot beringiz*” (Baqara surasi 110-oyat);

“*Ey Muhammad, iymon keltirgan bandalarimga ayting, namozni mukammal ado etsinlar hamda savdo-sotiq va oshna-og’aynigarchilik bo’lmaydigan kun (qiyomat) kelmayturib, Biz ularga rizq qilib bergan narsalardan xufyona va oshkora ehson qilsinlar*” (Ibrohim surasi 31-oyat). Shuningdek hadislarida : “Namoz – jannatning kalitidir”, “Namoz –dinning ustunidir”²³ degan fikrlar ham uchraydi.

“*Iymon*” –“Yaratganni qalbdagi **iymon**bilangina topish mumkin.” (420-b); “Iymon” Ollohga ishonch, e’tiqod demakdir²⁴. Islom dinida quyidagilarga ishongan kishilar iymonli hisoblanadi:

- 1) Allohga;
- 2) Allohning farishtalariga;
- 3) Allohning kitoblariga;
- 4) Allohning payg’ambarlariga;
- 5) Oxirat kuniga;
- 6) Taqdirga, ya’ni yaxshilik ham, yomonlik ham Allohdan ekaniga;
- 7) O’limdan keyin qayta tirilmoqqa.

Hadisi sharifda : “ Musulmonlik oshkoradir, iymon –qalbdadir “ deyilgan. Ya’ni, islomda shariat hukmlarini yuritgan, amallarini qilgan kishi musulmon deyiladi. Boshqa kishilar foydalana olgan shariat hukmlaridan bu kishi ham foydalana olur. Iymon esa qalb ishi bo’lganligidan uni hech kim bila olmas. U uning o’zi bilan Allohgagina ma’lumdir²⁵.

²³ Yuz bir hadis va uning sharhi. Toshkent.:“Mehnat”.1991

²⁴O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 2-jild. 185-bet

²⁵Axloq-odobga oid hadis namunalari. Toshkent.:“Fan” nashriyoti.1990-y

“*Fotiha o’qimoq*” –“Mehmon stol ustidagi aroq shishasiga qarab qo’ydi-yu e’tiroz bildirmay, ko’rsatilgan stuldan joy olib, **fotiha o’qidi.**” (424-b) Fotiha o’qimoq –qo’l ochib va uni yuzlariga tortgan holda o’zi yoki boshqalar uchun yaxshiliklar, ezgulik, tinchlik, salomatlik tilamoq, duo qilmoq²⁶ ma’nolarini bildiradi.

“*Duo*” –“Biroq ota-ona roziligi va **duosini** muhabbatining lazzatli hislariga nisbatan tubanroqqa qo’yib yanglishgandi.” (473-b);“Duo” iltijo, chaqirish, da’vat ma’nolarini anglatib diniy atama ma’nosida Xudoga yolvorib, unga iltijo qilib, o’zi yoki boshqalar uchun yaxshi ezgu tilak tilash ma’nosini anglatadi²⁷.Alloh taolo Qur’oni karimda “Baqara”surasining 186-oyatida shunday marhamat qiladi:

“Bandalarim sizdan (ey Muhammad) Men haqimda so’rasalar, Men ularga yaqinman. Menga duo qilgan paytlarida duogo’ylarning duosini ijobat qilaman. Bas, haq yo’liga yurishlari uchun (ular ham) mening (da’vatimga) javob qilsinlar va menga iymon keltirsinlar”. Payg’ambarimiz Muhammad alayhissalom ham duoning ibodat ekanini marhamat qiladilar.

“*Qurbonlik*” –“...Ey siz, **qurbonlikka** quyoshni suyganlar.” (350-b) Qurbonlik – islomda xudo yo’lida qurbonlikka so’yilgan yoki so’yiladigan jonliq, qurbon hayiti kunlarida xudo yo’liga jonliq so’yib, kishilarga beriladigan ziyofat²⁸ kabi ma’nolarda keladi.

“*Shukr*” –“Shunaqa ukaxonlarim borligiga **shukr.**” (394-b) “Shukr qilmoq” mamnun va qanoatda bo’lmoq” ma’nosini bildiradi²⁹. Diniy atama sifatida Xudoning bergan rizqiga rozi bo’lib yashash ma’nosida keladi. Shukr qilish islomiy farzlardan biridir.

Diniy-islomiy tasavvurdagi joy nomlari:

“*Do’zax*” –“**Do’zax**da kimlar bilan ulfatchilik qilamiz, bilasizlarmi ?” (333-b); Do’zax –jahannam , diniy tasavvurga ko’ra o’lgan, din talablarini bajarmagan gunohkor bandalar oxiratda abadiy azoblanadigan joydir³⁰.

“*Jannat*” –“Lekin **jannatni** havas qilmagan ham ma’qul.” (334-b);

²⁶O’zbek tilining izohli lug’ati. 5jildli. T:2006-2008. 4-jild. 360-bet

²⁷O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008.1-jild. 665-bet

²⁸O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 5-jild. 379-bet

²⁹O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 5-jild. 5-bet

³⁰O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 1-jild 672-bet

Diniy-islomiy tasavvurdagi payt nomlari :

“*Qiyomat*” –“So’ng boraver ortga yuz burmay **qiyomat**ni ko’rasan ayon.” (480-b) Qiyomat –diniy e’tiqodga ko’ra, bu dunyo tugagach, u dunyoda hamma tirilib, so’roqqa to’planadigan kun, sinonimlari mahshar, oxirat³¹.

“*Oxirat*” –“Dunyo qayg’usi bilan **oxirat** mulkidan quruq qolmagin.” (404-b); Oxirat –qiyomat so’zining ma’nodoshi.

“*Xufton*”–“Adasi bilan birga borib qiladigan xizmati bo’lmaganida **xufton** qorong’isi tushguncha ham yuraverishi mumkin edi.” (284-b) Xufton –quyosh botgandan bir-ikki soat keyingi vaqt, taxminan kech soat yettidan o’ngacha davom etuvchi vaqt³².

Diniy-islomiy tasavvurdagi mavjudot nomlari:

“Ostona ortida xotirotimiz va yolg’iz do’stimiz –**hazrati Ajal**.” (485-b)

“**Iblis** yetaklab yurgan odamning Parvardigorni izlab topganini o’n sakkiz ming olam yaralganidan beri hali hech kim ko’rgan emas...” (420-b)

“**Shayton** izg’ib yuruvchi bu ko’chadan qutulib ketganlar ko’p emas.” (421-b)

“Men **farishtaman**, farishtalar esa ko’rinishmaydi.” (343-b)

“**Arvohidan** qo’rqaman. Bollarni bu yerga boshlab kelmasligim kerak ekan.” (174-b)

Diniy-islomiy marosim nomlari:

“Domlaga borib **nikoh o’qitasiz**. To’y qilishingiz shart emas.” (174-b);

“O’sha tomonda o’z yumushi bilan yurgan uch-to’rt odam uning ko’ziga **janozaga** to’planayotgan jamoa bo’lib ko’rinib , yuragi qinidan chiqib ketayozdi.” (471-b).

Yuqorida asarda ko’p qo’llangan diniy so’z va iboralar uyadoshlari berildi. Lekin asarda bir marta qo’llanib, izohni talab qiladigan diniy birikmalar ham talaygina. Masalan:

³¹O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 5-jild. 274-bet

³²O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 4-jild. 429-bet

“Yodingizda bo’lsa, Otabek jamiyatning kamchiliklarini ayta turib: **“Xayya alal falaq”** ni mozoristonda kim ham eshitardi ? deydi.” (169-b) gapida qo’llangan “xayya alal falaq” diniy birikmasi **“najotga keling”** degan ma’noni bildirib, bu birikma namoz vaqtidagi erkaklar aytadigan **“azon”** so’zlaridandir. Asar qahramoni Zoir bu birikmani adabiyot darsida “O’tkan kunlar” tahlili vaqtida aytib tushuntirib beradi. Asar qahramoni Zoir Otabekning o’sha jamiyatni mozorga o’xshatganligi uchun mozorda “najotga keling” deb baqirishning foydasi yo’qligini so’zlaydi.

Shuningdek, quyidagi parchaga e’tiborimizni qaratsak :

“Buning yo’li oson ekan, juma kuni **“g’oyib janoza”** deganini o’qib qo’yishsa hisobga o’taverarkan.” (387-b)

Asar qahramonlaridan biri Afro’za o’z joniga qasd qiladi. Bo’ron uning jasadini qabristonga olib kelib odamlardan yashirincha dafn ettiradi. Shunda guvoh ko’paymasligi uchun mulla chaqirtirmaydi va juma kuni “g’oyib janoza” o’qitib qo’ymoqchi bo’ladi.

Bundan tashqari asarda islomiy bilimni omma orasiga yoyishda xizmati katta bo’lgan So’fi Olloyorning:

“Kel, ey ko’ngil, jahon savdosidan kech,

Qadam g’am kishvarina urmag’il hech !”(404-b) deb boshlanuvchi misralari ham keltirib o’tilgan. Yozuvchi ushbu satrlarga quyidagicha izoh beradi :

“Ey ko’ngil, **dunyo** ishlari va zavqlaridan kech ! Oyog’ingni dunyoning g’am-u hasratlariga urma ! Dunyo qayg’usi bilan **oxirat mulkidan** quruq qolmagin. Undan ko’ra qilmishlaringga istig’forlar qilgin. **Hiylagar dunyo** bir odamni aldamoq uchun qo’lini uning qo’yniga solgan paytda, shayton suyunib, ul odamning **ibodat-u ishq**i o’rniga kirib, yo’ldan chiqarar”.(404-b)

Yuqoridagi parchada ajratib ko’rsatilgan so’zlar asarda uchraydigan tasavvufiy terminlarga misol bo’ladi. Tasavvufiy terminlar yana bir o’rinda qo’llangan:

“Agar sulton g’aniy va komrondur,

*Va gar **darvesh**hojatmandi nondur.*

Ikkov ham elta olmas jonparvar hol,

*Kafandin o’zga **dahr** amvolidin mol.*

Chu qilg'ung mulk molingdin judoliq.

*Erur shahlikdin avloroq **gadoliq**.*

1.3.“Nomus” rivoyatidagi diniy so‘zlarning leksik ma’nolari

Yozuvchining mazkur asari qadim rivoyatlar asosida yozib tugatgan, o‘zining ta’biri bilan aytganda, “*ota-onalari va elning duosini olib yashayotgan pokdomon singillar*”ga bag‘ishlangan tarixiy hikoyatdir. Hikoyatning hajmi qisqa bo‘lsa-da, undagi diniy so‘zlar hajmi yozuvchining boshqa asarlariga qaraganda ancha ko‘pdir.

Hikoyatda islom dini farzlari bilan bog‘liq so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Barchamizga ayonki, islom dini besh farzni o‘z ichiga oladi :

1. Iymon

2. Namoz

3. Ro‘za

4. Zakot

5. Haj

I. Iymon – arabcha “*ishonch, e’tiqod*” ma’nosini anglatib, islom dinida Allohga, uning farishtalari, kitoblari, payg‘ambarlari, qiyomat kuni, taqdir va o‘lgandan keyin tirilishga ishonish. Bu “iymoni mufassal”, ya’ni iymonning mufassil ta’biri deb ham ataladi. Iymon moturidiylik ta’limotiga ko‘ra, 2 narsaning butunligi – *e’tiqod* (dinga ichdan chuqur ishonish), *iqror* (so‘zda buni tan olish)dan iborat deb hisoblanadi. Islomda iymon talablari “**arkon al-imon**”(*e’tiqod asoslari*) sanaladi.

Iymon asoslariga u aqlimizga xoh sig‘sin, xoh sig‘masin, baribir ularga shakshubhasiz e’tiqod qilish talab qilinadi. Iymon talablari, ya’ni aqidalar islomning diniy dunyoqarash asoslarini tashkil etadi. Din va huquq ilk islom davrida ajratilmagani tufayli “iymon” muammosi ilohiyotchilarni ham, fiqhshunoslarni ham band etgan. Iymon tushunchasi islomda muhim va bahsli masalalardan biri hisoblanib, uni VIII asr boshidan turli ilohiyot va diniy-huquqiy maktab vakillari turlicha talqin qilgan.

Hozirgi kunda *iymon* so'zi vijdonlilik, halollik, soflik, Vatanni sevish ma'nolarida ham ishlatiladi³³.

“Nomus” hikoyatida *iymon* so'zi bilan bog'liq quyidagi tushunchalarga duch kelamiz:

“ –Akangizning bunday demaklari aqllariga ham, **iymon**lariga ham xos emasdir” (40-b);

“ –**Kalima** qaytara-qaytara, qo'rquvni yenggan bo'lib, yigitning yuziga qo'l yubordi”(3-b)

Aynan “**kalimai shahodat**” –(*guvohlik kalimasi*) islom dinidagi besh asosiy arkonning birinchisidir. Unga ko'ra “*Allohdan o'zga iloh yo'q, Muhammaduning rasulidir*” –degan kalimani til bilan aytib, dil bilan tasdiq etish shart qilingan. Bu kalimani inson til bilan aytsa-yu, dil bilan tasdiqlamasa, ya'ni o'zi ishonmasa, undaykishi islomda munofiq hisoblanadi. Lekin dilida ishonsa-yu, tili bilan aytishdan bosh tortsa, u ham sha'ran musulmon sanalmaydi. Demak, mo'minlikning *ikki sharti* bo'lib, ularning *birinchi* –Muhammad (s.a.v)ning Alloh tomonidan keltirgan barcha xabarlarga til bilan iqror etish , *ikkinchisi* –shu xabarlarni dil bilan tasdiq etishdir. Sunniy-hanafiy ta'limoti shundan iborat. Lekin ba'zi islomiy aqida va oqimlar bunga xilof ravishda *iymonning sharti* 2 ta emas, 3 ta deb, ibodat va amallarni to'la bajarishni –*iymonning uchinchi sharti* sanashadi. Bu bilan ular ko'pchilik musulmonlarni kofirlar safiga qo'shib qo'yishadi. Vaholanki *iymon* bilan *kufir* e'tiqodiy masalalar turiga, amaliy ibodatlar yoki gunoh va jinoyatlar alohida boshqa masalalar turiga oiddir. *Iymon* bilan birga amal ham bo'lsa, nur ustiga nur. Amal qilmasa yoki gunoh ishlarni qilsa (moturidiylik aqidasi ko'ra) kofir bo'lmaydi, balki gunohdor bo'ladi³⁴.

Hikoyatdan olingan quyidagi parchada esa *iymon* so'zi ibora ko'rinishida (“**iymonikomil**”) qo'llangan:

“Siz tomonlarda “yanga” atalsa, bizda “kelin aya” derlar, qayin iningizni onalik mehri bilan tarbiya etmog'ingizga *iymonim komil*” (42-b) Ushbu gapda “*iymoni*

³³Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 126-bet

³⁴Islom ensiklopediyasi. Toshent:2004. 161-bet

komil bo'lmoq" iborasi "o'ta ishonmoq" ma'nosini bildiradi. Shuningdek, hikoyatda ayrim o'rinlarda iymon so'zi bilan bog'liq ko'chma ma'noli o'xshatishlar ham qo'llangan bo'lib, ular quyidagilar:

"Lekin qarg'amadi, tunni nafl namozi bilan o'tkazib, unga Allohdan **iymon quvvati** va insof tilab chiqdi" (42-b);

"Siz **iymoningiz eshigini** berkitibsiz" (48-b).

II.Namoz –(fors, arabcha –salot) islom ko'rsatmalari bo'yicha bajariladigan maxsus ibodat turi; islomdagi besh rukndan biri. Namoz musulmonlarga me'roj kechasi farz qilingan birinchi ibodatdir. Bir kecha-kunduzda besh mahal (bomdod, peshin, asr, shom, xufton) namoz o'qish farz hisoblanadi. Namoz o'qish "Allohi Akbar"deb takbir aytish bilan boshlanib, sano, Qur'on oyatlaridan tilovat qilish, tasbeh va duolar o'qish, ruku, sajda, tiz cho'kib o'tirish, salom berish kabilar bilan yakunlanadi. Namozda bajariladigan barcha amallar birlashtirilib, yozma holda Muhammad Shayboniy (805-yil vafot etgan) tomonidan qayd etilgunga qadar namoz o'qish tartibini bir xillikka keltirish ustida o'tgan 150 yil mobaynida sa'y-harakatlar qilingan. Qur'on oyatlari va hadisi shariflarda namozning ahamiyati, fazilatlarini haqida gapirilib, uni mukamal ado etishga tashviqot qilinadi. Namoz o'qish uchun namozxonning badan va kiyimlari hamda o'qish joyi pok bo'lishi shart. Namoz Makkadagi Ka'ba ibodatxonasiga qarab o'qiladi. Uni o'qishda maxsus to'shama – joynamozdan foydalaniladi.³⁵

"Nomus" hikoyatida namoz farzi bilan bog'liq so'zlar ham talaygina. Bular tubandagicha:

1.Bomdod namozi –"sahar, tongotar" ma'nolarini anglatib, erta bilan kun chiqmasdan o'qiladigan birinchi namozdir³⁶.

"Subhi sodiqda nabirasi Mo'mina ham turib *bomdodni* o'qigach, hovli ishlariga qaradi" (6-b);

2.Nafl namozi –"zarur bo'lganidan ortiq, qo'shimcha namoz".³⁷ Namoz turlaridan biridir.

³⁵Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 218-bet

³⁶O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildli. T:2006-2008. 1-jild. 311-bet

³⁷O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildli. T:2006-2008. 3-jild. 25-bet

“To’pig’igacha qumga botib, yigirma qadamcha yurgach, o’zi ixtiyor etmagan holda ortiga o’girilib, *nafl namozini* niyat qilgan ayolning sajdaga bosh qo’rganini ko’rdi” (13-b);

3.Tahajjud namozi –arabcha “tahajjada” fe’lidan“bedor bo’lmoq, bedorlik” ma’nolarini anglatib, tungi namoz yoki tunda Qur’on o’qish. Muhammad (s.a.v)ning Makkada yashagan davrlarida tungi ibodat farz sanalgan va musulmonlar tunning ko’p qismini ibodatda o’tkazganlar. Biroq Madinada tahajjudning farzligi bekor qilingan. Shunga qaramasdan tungi ibodatlar saqlanib qolgan. Ayniqsa, ramazon oyida tarovih (birligi tarviha “orom olish”) o’qish maqtovga sazovor amallardan hisoblanadi. Tungi namozga bir yoki bir necha (13 tagacha) rakat qo’shib o’qilishi (bunda umumiy rakatlar soni toq bo’lishi kerak bo’lgan) ham ma’qullangan. Bunday namozni vitr (toq, juft emas) deb atashgan.

Hanafiylar fikricha, vitr farz sanaladi. Boshqa mazhabdagilar uni ma’qullashadi, biroq farz emas deb hisoblashadi. Tungi ibodat juft rakatlardan tashkil topsa, uni shaf’ (juft) deb atashadi. Vitr yoki shaf’ni tunning xohlagan paytida amalga oshirish mumkin, lekin u bir kechaning o’zida ikki marta o’qilmasligi shart. Muazzin tungi ibodatga ikki marta chaqirishi va u “ibodat uyqudan afzal” so’zlari bilan boshlanishi lozim.³⁸

“Odati bo’yicha tunda *tahajjud namozini* o’qish uchun o’rnidan turganida chodirdan sal naridagi odam qorasiga ko’zi tushdi” (14-b);

4.Xutba –juma va hayit kunlarida imom xatibning sunnatdan keyingi, farzdan oldingi va’zxonligi, diniy pand-nasihatdir.³⁹

“Ka’bada *xutbani* tinglab, sakkizinchi kuni yaum-at-tarviyya bomdod namozini ado etishgach, muqaddas shahardan chiqib, Mino vodiysini makon tutdilar.” (14-b);

5.Azon –namozga chaqirish demakdir⁴⁰.

“Qiz dunyoga kelib, qulog’iga azon aytilar mahalda otasi “Mohinur” deb ism qo’yib yanglishilmagan edi.” (16-b) “*Qulog’iga azon aytmoq*” –yangi tug’ilgan chaqaloqning qulog’iga tegishli duolarni o’qimoqdir.

³⁸Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 289-bet

³⁹O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008.4-jild. 429-bet

⁴⁰O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 1-jild. 50-bet

6.Shom namozi –quyosh botib, qorong’u tusha boshlagan paytda o’qiladigan namozdir.⁴¹ Shom namozi bir kunda o’qilishi farz bo’lgan besh vaqt namozdan to’rtinchi farz namozidir.

“Shom namoziga azon chaqirilgach, bitta xurmo bilan iftor qildi.” (32-b);

7.Vitr namozi –Farzdan quyiroq, sunnatdan ulug’ turadigan, vojib ibodat sanaluvchi uch rakatli namozdir. Vitr namozi xufton namozidan keyin o’qiladi.

“Kechaning yarmi o’tganda tahoratini yangilab, tahajjud va vitr namozlarini o’qidi.” (32-b);

8.Qa’da–arabcha “o’tirish”, namozning bir qismi o’tirgan holda ibodat qilish holatidir⁴².

“Mehrob qarshisida *qa’dada* o’tirgan yigitga ko’zi tushib, poygakda to’xtadi.” (33-b)

III.Ro’za –forscha ro’za –kunduzgi ish; arab tilida “savm” deyilib, biror narsadan o’zini tiyish ma’nosini anglatadi.Islomdagi beshta rukndan biri. Har yili bir oy –Ramazon oyida ro’za tutish farzligi Qur’oni karimda qayd etilgan. Bunda bomdod namozi vaqtining boshlanishidan to quyosh botgunga qadar yemaslik, ichmaslik, jinsiy yaqinlik, g’iybat, chaqimchilik qilmaslik, harom qilingan narsalarga qaramaslik shart. Ro’za sog’lom, safarda bo’lmagan, balog’at yoshidagi musulmon mo’minlarga farz qilingan. Ro’za tutish Qur’onda belgilanganidek, insonni taqvoga, ya’ni moddiy va ma’naviy jihatdan sabr-toqatli bo’lishga, irodani mustahkamlashga o’rgatadi. Ro’za dastlab Muhammad (s.a.v) Madinaga hijrat qilganlaridan 18 oy o’tgach farz qilingan.⁴³

“Nomus” hikoyatida ro’za bilan bog’liq quyidagi so’zlarga duch kelamiz:

1.Nafl ro’za –ro’zaning turlaridan biri bo’lib, dushanba, payshanba kunlarida, shavvol oyida olti kun tutilgan ro’zadir.⁴⁴

“Shayx bir dona xurmo bilan qanoatlanib, *nafl ro’zaga* niyat qildi.” (5-b);

2.Ramazon –ro’za tutiladigan oylardan biri.

“Bu oila bilan o’tgan Ramazon arafasida ko’rishgan edi.” (6-b);

⁴¹O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 4-jild. 594-bet

⁴²Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 237-bet

⁴³Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 252-bet

3.Iftor qilmoq –arabcha “og’iz ochish, ro’zani ochish ma’nosini bildirib, islomda ro’za tutish bilan bog’liq odat.

“Shom namoziga azon chaqirilgach, bitta xurmo bilan iftor qildi” (32-b)

IV.Zakot –arabcha “tozalash, sadaqa berish” ma’nolarini anglatadi. Mol-mulk va daromaddan beriladigan sadaqa, xayr-ehsondir. Islomning besh asosiy talablaridan biri. Shariatga muvofiq, muayyan boylikka nisobga ega bo’lgan musulmon zakot beradi. “Nomus” hikoyatida zakot bilan bog’liq bir o’rinda *ehson* so’ziga duch kelamiz.

“Allohga shukr qilingiz, hamd aytingiz-da *ehsoningizni* hojatmandlarga beringiz, -deb nari ketdi.” (35-b)

V.Haj –Makkani ziyorat qilish, islomning besh asosiy ruknlaridan biridir. *Haj amali* uni ado etishga qurbi yetgan barcha musulmonlar uchun (juda bo’lmaganda umrida bir marta) farzdir. Unga qurbi yetmaganlar o’zlarining o’rinlariga “o’rinbosar”, ya’ni “**vakil al-haj**” yuborishlari mumkin. Haj *zulhijja oyida* amalga oshiriladi va turli marosimlarni (“manosik al-haj”) o’z ichiga oladi. Ziyoratchilar karvoni Makkaga yettinchi zulhijjada yetib keladilar. Ular maxsus joy –**Miyqotda** poklanib ehromga kiradilar. Kichik haj marosimini o’taydilar. Bular Umra va Tavof marosimlaridir. So’ngra **Umra** va **Hajni** alohida o’tashga qaror qilganlar sochlarini oldirib ehromdan chiqadilar. Ular haj oldidan bevosita yana qayta ehromga kiradilar. Umra va Hajni birga o’tamoqchi bo’lganlar (**qiron**) haj oxirigacha ehromda qoladilar. Zulhijja oyining yettinchi kuni ziyoratchilar Ka’bada xutba eshitadilar va namoz o’qiydilar. Ertasi kuni (**yaum at-tarviya**) **Mino vodiysiga** boradilar. Ziyoratchilar zulhijja oyining sakkizinchi sanasidan to’qqizinchi sanasiga o’tar kechani Mino vodiysida o’tkazadi, zulhijjaning to’qqizinchi kuni ertalabdan hajning asosiy marosimi –Arofat tog’i oldida turish (**vukuf**) boshlanadi. Ziyoratchilar xutba eshitadilar, namoz o’qiydilar. Bu turish kun botguncha davom etadi. So’ngra ziyoratchilar **Muzdalifavodiysi** tomon yuradilar (ifada). Shu yerda shom va xufton namozlari o’qiladi va tunaladi. Zulhijjaning o’ninchi kuni (**yaum an-nahr**) bomdod namozidan keyin ziyoratchilar Mino vodiysiga yo’l oladilar, bu yerda ular

⁴⁴Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 252-bet

Muzdalifadan olgan 49 ta kichik toshning 7 tasini birinchi kuni kichik shayton ramziga uloqtiradilar. Bu marosimdan so'ng shu yerning o'zida savdogarlar va badaviylardan sotib olingan jonliq qurbonlik qilinadi. Zulhiijaning o'ninchi kuni musulmonlarning eng muhim bayrami hisoblanib, butun islom olamida keng nishonlanadi. Sochlarini oldirib yoxud kestirib ziyoratchilar so'nggi tavofni bajo keltirish uchun Makkaga yo'l oladilar. Kimda kim dastlabki marosim Umra qilmay haj qilgan bo'lsa (**haj ifrod**) tavofdan keyin sa'yni ado etishadi. Zulhiijaning o'n birinchi kundan o'n uchinchi kunigacha (**ayyom at-tashriq**) ziyoratchilar qurbonlik qilishda davom etadilar, Mino vodiysiga boradilar, u yerda endi hamma ustunlarga qarab ikki kun 7 tadan toshcha otadilar (**jamrat al-ula, jamrat al-vusta, jamrat al-aqaba**), o'z ishlari bilan band bo'ladilar.⁴⁵

“Nomus” hikoyatida qo'llangan haj bilan bog'liq so'zlarga e'tiborimizni qaratsak, ular quyidagilar :

“*Haj ziyorati*” – “Zohid birodarim ila haj ziyoratiga otlandik” (6-b)

“*Haj ibodati*” –Shayx uni tanirdi, birinchi marta haj ibodatini niyat qilib yo'lga chiqqanida kimsasiz sahroda ko'rib edi (12-b) Haj ziyorati va ibodati deganda Makkai shahriga borib, zulhijja oyida belgilangan tartib-qoida va odatlarga amal qilgan holda Ka'bani tavof va ziyorat etish tushuniladi.

“*Makkai mukarrama*” –Makkai mukarrama sari yo'l tutganini eshitib, yaqin atrofda parokanda bo'lgan yana bir karvon bor ekan-da, degan xayolga borib, uni adashgan yo'lovchi o'rnida qabul qildilar. (13-b)

“*Miyqot*” –“so'ng Makkai mukarrama sari yo'l oldilar-u, miyqotda poklanib , ehromga kirdilar”

“*Ka'batulloh*” –“Zulhijja oyi ko'rinmay turib, Ka'batullohni ziyorat qilish ne'matiga yetishdilar.”

“*Mino vodiysi*” –“Zulhiijaning yettinchi kuni Kabada xutbani tinglab, sakkizinchi kuni yaum-at-tarviyya bomdod namozini ado etishgach, muqaddas shahardan chiqib, Mino vodiysini makon tutdilar.

⁴⁵Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 92-bet

“*Arafot*” –“To’qqizinchi kuni bomdod nomozidan so’ng Arafotda vuquf boshlandi”

“*Muzdalifa*” –“Kun botgach, Muzdalifaga o’tib, unda tunadilar”

“*Jamarat al-aqaba*” –“Mino vodiysiga kelib, jamarat al-aqabada shaytonga tosh otishdi”.(14-b)

“*Haj qilmoq*” –“Mohinur o’z farzini ado etgach, qatl etilgan o’n bir jon uchun alohida-alohida haj qilgan edi” (31-b)

“*Tavof etmoq*” –“Alloh baytini yana tavof etishni ixtiyor qilmish ekansan, borgil” (31-b)

“*Hajji mabrur*” –“Siz tufayli hajji mabrurga erishgayman, inshaalloh!” (46-b)

Hikoyatda Allohning go’zal ismlaridan quyidagilar qo’llanadi: al-Hodiy, zul-Jaloli val-Ikrom, al-Botin, as-Sabur, Alloh taborak va taolo, Yaratgan, Rahmon, Rahim, Xoliq, Tangri taolo, As-Sami’, al-Basir, al-Hakam, al-Adl, al-Karim, at-Tavvob, al-Muntaqim, ar-Rauf.

Qur’onda Alloh ismlari haqida shunday deyiladi: “*Allohning go’zal ismlari bordir. Bas, Uni o’sha ismlar bilan chorlanglar (yod etinglar), Uning ismlarida haqdan og’ib (noo’rin joylarda ularni qo’llaydigan mushrik) kimsalarni tark qilinglar*” (“A’rof” surasi 180-oyat): “*Alloh, deb chorlangiz yoki Rahmon –Mehribon, deb chorlangiz. Qanday chorlasangizlarda (joizdir). Zero, U zotning go’zal ismlari bordir*” (“Al-isro surasi, 110-oyat). Bu ismlar 99 ta. Ular musulmon ilohiyotida muhim o’rin tutadi. Alloh ismlari ko’p duolarda qo’shib aytiladi. So’fiylar o’z zikrlarida ham bu ismlarni kamolotga erishishning timsoli sifatida ishlatadilar. Allohni va uning ismlarini iloji boricha ko’proq eslab turish taqvorlik namunasi hisoblanadi. Odatda tasbih donalari soni Alloh ismlari soni bilan tengdir. Alloh ismlaridan duoxonlar tumorlar sifatida foydalanishadi.⁴⁶

Yuqorida hikoyatda keltirilgan Alloh ismlarining ma’nolari quyidagicha :

1.*Alloh* –Tangri, Ma’budi bir haq;

2.*ar-Rahmon* –o’ta mehribon;

3.*ar-Rahim* –juda rahmli;

⁴⁶Begmatov E. O’zbek ismlari. Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. 7-bet

- 4.*ar-Rauf* –o'ta mehribon, rahmati keng;
- 5.*as-Sami'* –maxfiy va oshkora gap va sharpalarni, hatto dildan o'tganini ham eshituvchi;
- 6.*al-Xoliq* –yaratuvchi, vujudga keltiruvchi;
- 7.*at-Tavvob* –tavbalarni qabul etuvchi;
- 8.*al-Muntaqim* –gunohkor bandalaridan o'ch oluvchi, jazolovchi;
- 9.*al-Hodiy* –yo'l ko'rsatuvchi;
- 10.*al-Botin* –o'zi mavjud, lekin sezgi vositalarimizdan maxfiy zot;
- 11.*Zul-jaloli val-ikrom* –sharafli va karamli;
- 12.*As-Sabur* –gunohkor –isyonkorlarga jazo berishga shoshilmaydigan zot;
- 13.*Al-Basir* –hamma maxfiy va oshkora narsalarni ko'ruvchi;
- 14.*Al-Hakam* –qat'iy hukm etuvchi;
- 15.*Al-Adl* –o'ta adolatli;
- 16.*Al-Karim* –karamli, saxovatli, kechirimli.⁴⁷

Hikoyatda ikki o'rinda Allohning ismlari uyushiq bo'lak ko'rinishida beriladi. Bulardan birinchisi **“Muallif maqsadi bayonida”** qismida:

“Poklikka intilganlar ko'ngillarini xayrli niyatlar ila boyituvchi, pok yo'ldan adashib yurganlarning so'qir ko'zlarini ochg'uvchi al-Hodiy, zul-Jaloli val-Ikrom, al-Botin, as-Sabur, mehribon va rahmli Alloh taborak va taoloning pok nomini dilga jo qilib, so'z boshladik” (4-b) ;

Ikkinchisi esa **“Ko'zlari ko'r uch gunohkor banda bayonida”** qismida :
 “Alloh as-Sami', al-Basir, al-Hakam, al-Adl, al-Karim, at-Tavvob, al-Muntaqim va ar-Raufdir” (56-b) .

Hikoyatda ko'p o'rinlarda Alloh ismlaridan “Alloh” va “Rabb” ismlarining qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Yuqorida keltirilgan ismlarning qolganlari faqat shu ikki o'rinda qo'llangan.

Shuningdek, hikoyatda Alloh ismi bilan bog'liq qo'shma so'zlar ham uchraydi. Bular inshaalloh, vallohi a'lam, Ka'batulloh, Rasululloh so'zlaridir.

“-Inshaalloh, erta subhi sodiqda yo'lga chiqajakmiz” (6-b)

⁴⁷Begmatov E. O'zbek ismlari. Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati. 1991. 8-9-betlar

Inshaalloh –Xudo xohlasa, xudoga xush kelsa⁴⁸ma'nolarini anglatadi. Yaxshi istak bildirish uchun qo'llanadigan va xudoyo, ilohi kabi ma'nolarda keladigan duo iborasidir.

“-Ko'zlarining olaygani do'zax xabaridandir, vallohi a'lam!” (26-b) **Vallohi a'lam** –Alloh yaxshi biluvchidir ma'nosini bildirib, aniq emaslikni, aniq bilmaslikni ifodalaydi.⁴⁹Uning ma'nodoshlari sifatida nutqimizda xudo haqqi, azbarayi xudo iboralari ham qo'llanadi.

“Zulhijja oyi ko'rinmay turib, Ka'batullohni ziyorat qilish ne'matiga yetishdilar.”(14-b).

Ka'batulloh –Allohning bayti, ya'ni uyi demakdir.

Zotan, Rasululloh, sollallohu alayhi vasallam demishlarki, Jannat onalar oyog'in ostidadir”(50-b)

Rasululloh –Allohning elchisi, ya'ni Muhammad (s.a.v) payg'ambar.

“Nomus” asari bevosita diniy-ma'rifiy yo'nalishda yozilgani bois asar qahramonlariga tanlangan ismlar ham islom dini bilan bog'liq bo'lgan antroponimlardir. Bular, **Ma'sumaMo'mina, Robia', Abdullohismlari.**

Mo'mina –shariatga e'tiqodli, musulmon qiz, taqvodor ayol ma'nosini anglatadi;

Robia' –eskicha oy hisobining to'rtinchi oyida tug'ilgan qizlarga qo'yiladigan ism;

Ma'suma –gunohsiz, bokira degan ma'noni bildirsa;

Abdulloh –Allohning quli, bandasi deganidir.⁵⁰

“Nomus” hikoyatida diniy so'z va iboralar 150ga yaqinni tashkil qiladi. Eng ko'p diniy so'zlar “*Alloh*”, “*gunoh*” so'zlaridir.

Ibob bo'yicha chiqarilgan xulosalar:

1. Tohir Malik asarlarida personajlar tilidan aytilgan diniy so'zlar “*kalima*”, “*duo*”, “*do'zax*”, “*qiyomat*”, “*tahorat*”, “*nafl ro'za*”, “*hidoyat*”, “*nomahram*” va

⁴⁸O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildli. T:2006-2008. 2-jild. 221-bet

⁴⁹O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildli. T:2006-2008. 1-jild. 439-bet

⁵⁰Begmatov E. O'zbek ismlari.Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991.

shu kabilar yozuvchi ijodini tadqiq qilishga undaydi. Diniy soʻzlar yozuvchi ijodida shunchaki qoʻllab ketilavermaydi. Ular maʼlum bir voqelikka personajlarning munosabatini bildirish uchun, diniy uquvini oʻquvchiga koʻrsatish uchun, shuningdek, maʼrifiy vazifani oʻtash uchun xizmat qiladi.

2. Diniy soʻzlar masalasida biz koʻpincha shaʼriy atamalar bilan cheklanamiz. Aslida esa eʼtiqod maʼnosini ifodalaydigan lisoniy-nutqiy birliklar tizimi birmuncha kengroq boʻlib, ularni shartli ravishda shaʼriy terminlar; diniy soʻzlar; diniy maʼno ifodalaydigan lisoniy-nutqiy birliklar tarzida uch guruhga boʻlish mumkin.

3. Yozuvchi ijodini tadqiq qilishda faqat diniy soʻzlar tadqiqi bilan cheklanib qolib boʻlmaydi. Chunki tasavvufiy mazmun kasb etgan soʻzlar ham, eʼtiqod nuqtai nazaridan qaralganda, oʻrganilish obyektlaridan biri sanaladi.

4. Islomda dinning asosi – shariat. Demak, diniy soʻzlarning asosi shaʼriy terminlardir. Yozuvchi asarlarida aynan biz shariat bilan bogʻliq terminlarni uchratamiz.

5. Diniy soʻzlarning leksik maʼnolarini izohlash orqali “islomiy atamalar lugʻati”ni tuzish va chop ettirishni leksikografiyaning vazifalaridan biri sifatida dolzarb masalaga aylantiradi. Shu paytgacha oʻzbek tilida toʻkis islomiy lugʻat chop etilmagan. Toʻgʻri, “Islom ensiklopediyasi” chop etilgan, lekin undagi atigi mingga yaqin atamalar ensiklopediya uchun yetarli emas.

6. Yozuvchi ijodini oʻrganish orqali oʻzbek tili leksikasida diniy-islomiy soʻzlar tizimining oʻziga xos tarkibi; diniy-islomiy soʻzlarning oʻzbek tilidagi tutgan oʻrni va maqomi; tilning diniy-islomiy soʻzlar bilan bogʻliq imkoniyatlarini istiqbolda yirik plandagi tadqiqot obyektlari qatorida oʻrganilishi lozimligidan dalolat beradi.

7. Yozuvchi asarlaridagi diniy-islomiy soʻzlarning oʻziga xos tarkibi haqida toʻxtaladigan boʻlsak, uning ijodida islom dini ahkomlari bilan bogʻliq shariat terminlari, islomiy farzlarga doir terminlar, shuningdek, islom diniga bogʻliq boʻlgan tushunchalar va nutqimizda faol ishlatiladigan diniy iboralarni qoʻllanganligiga guvoh boʻlamiz.

II–BOB. TOHIR MALIK ASARLARIDA UCHRAYDIGAN DINIY SO‘ZLARNING MAHSULDORLIGI VA SALMOG‘I

2.1“Falak” qissasida qo‘llanilgan diniy-islomiy so‘zlarning mavzuviy tasnifi

Yozuvchining “Falak” qissasi tarixiy mavzuda yozilgan asarlardan. Unda Mirzo Ulug‘bek davri qalamga olinadi. Qissada ham yuqorida ko‘rib chiqilgan ikki asar singari diniy so‘z va iboralar ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Masalan:

“Shu tobda *namoz chaqirig‘i* eshitildi. *Asrnamozining* vaqti yetgan edi. Ulug‘bek yuziga *fotiha tortib*, o‘rnidan qo‘zg‘aldi.” (59-b);

“Men *shariatni* parda qilib olib, dinning puturini ketkazayotgan *do‘zaxilar* davrasidan chekindim. *Oxirat andishasini* deb *pirimning* etaklarini tutdim. *Bandalarga Haqdan iymon* so‘rab, umrini *toat-ibodat* ila o‘tkazmoqdan ulug‘roq *savob* yo‘qtur.” (65-b) va shu kabilar.

Qissada diniy-tasavvufiy so‘zlardan “*murid, pir, qalandar, darvesh, shayx*” kabilar ham mavjud.

1.Darvesh–fors, turkcha –qashshoq , arabcha –faqir, O‘zini Alloh yo‘lida xizmat qilishga bag‘ishlagan va o‘zini o‘zi kamolotga yetishtirish yo‘liga kirgan insondir. “*So‘fiy*” so‘ziga sinonimdir. Darveshlik ta‘limotining asosini zikr tushish orqali xudo bilan “yaqinlashish” va hatto u bilan “qo‘shilib ketish” mumkin , degan g‘oya tashkil qiladi. Eron, O‘rta Osiyo , Turkiyada darvesh so‘zi tor ma‘noda-shaxsiy mulki bo‘lmagan kambag‘al, daydi zohidni (XVI asr boshigacha “*qalandar*” so‘zining sinonimi) anglatgan. Darveshning boshlang‘ich ma‘nosini bildirgan “kambag‘al” so‘zi so‘fiylikni ixtiyoriy kambag‘allik, oz narsaga qanoat qilish haqidagi ta‘limotidan kelib chiqqan. Darveshlar muayyan maslaklarga birlashgan va uning g‘oyalarini targ‘ib qilgan. Ta‘limoti, odati va kiyimlaridan qat‘iy nazar, darveshlar ikki guruh –daydi, doimo darbadarlik qilib yuruvchilarga va shayx, pirlar rahbarligida muqim yashovchilarga bo‘lingan.⁵¹ Qissada biz darveshlarning har ikki guruhiga duch kelamiz. Lekin yozuvchi asarda “soxta darvesh”larni, xurofotga

⁵¹Islom ensiklopediyasi. Toshkent: 2004. 67-bet

berilgan so'fiylarni nazarda tutgan. Ushbu parchada "darvesh, qalandar" so'ziga nisbatan "**xudoningadolari**" birikmasini qo'llab, ko'chma ma'noda kinoya qilgan:

"Avzoyidan Abdulvahobni kaltaklash istagi bor edi-yu, lekin bir andisha uni ushlab turardi: u "*Xudoning gadolari*"ga qo'l ko'tarmoqlik gunohidan qo'rqardi.(70-b);

2.Pir –forscha "keksa, qari" ma'nolarini bildiradi. So'fiylik an'anasida tariqatlarning oliy rahnamolari yoki obro'li rahnamolardir. Shuningdek, har bir murid o'z murshidini ham pir deb atagan. Aholi orasida pir tushunchasi avliyo, ma'lum bir hunarning asoschisi ma'nosida ham ishlatiladi.⁵²

"Shunda yigit "*Yo pirim!*" deb hayqirganicha uni dast ko'tardi. (98-b);

3.Qalandar–tasavvuf yo'liga kirib darbadarlik va xayr-ehson bilan kun kechiruvchi kishidir. Yuqorida keltirilgan "darvesh" so'zi bilan sinonimik munosabatda.

"*Qalandarlikka* qaytgan jo'rangizga ro'para bo'lsa, darrov qanotiga oladi."(152-b);

4.Shayx –arabcha keksa, oqsoqol; qabila, urug', oila oqsoqoli demakdir. Islom dini tarqalgan mamlakatlarda avval bilimdon kishilar, olimlar, so'ngra ruhoniylar, ulamolar, faqihlar shayx deyilgan. Keyinchalik so'fiylik tariqatidagi pirlar, eshonlar, muqaddas joylarning mutasaddilari ham shayx deb yuritilgan.⁵³

"Ahmad Lurning *shayx*ga murid ekani-chi ? Yoinki ul shayxning dinimizni poymol etuvchi ilm bilan mashg'ul bo'lishi-chi?" (155-b);

5.Muridlik –arabcha murid so'zi ergashuvchima'nosini bildirib, ixtiyoriy ravishda izdan boruvchi, shogird ma'nolarini anglatadi. Tasavvufda tariqat murshidlaridan dars oluvchi shogird ma'nosida ishlatiladi. Murid shayx, pir, murshid oldida o'z zimmasiga muayyan majburiyatlar oladi, ular bilan pinhona ishonchli munosabatlar o'rnatadi va ularning irodasiga bo'ysunadi. Umuman murid atamasi so'fiy va hatto oddiy musulmon ma'nolarini ham anglatadi.⁵⁴

⁵²Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 231-bet

⁵³Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 342-bet

⁵⁴Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 203-bet

“*Muridlik* xususidagi da’vongiz mavhum. Ilm xususidagi so’zlaringizda esa ma’no yo’qtur.” (155-b)

Shunindek, qissada islom dinida gunohkor kishilarga nisbatan ishlatiladigan *sifatlashlar* ham ayrim o’rinlarda qo’llangan bo’lib, ular quyidagilar:

Shakkok –“**Shakkokligi** uchun jazoga loyiq erdi, lekin Xudo asrab, davlatpanohning marhamati nasib etdi.”(63-b) *Shakkok* –arabcha “shubha bilan qaraydigan, ishonmaydigan” ma’nolarini bildiradi. Diniy aqidalarga shubha bilan qaraydigan, ishonmay ikkilanib turadigan odamdir.⁵⁵

Do’zaxi –“Men shariatni parda qilib olib, dinning puturini ketkazayotgan **do’zaxilar** davrasidan chekindim.” (65-b) Do’zaxi deb din talablarini bajarmagan kishilarga aytiladi.

Fosiq –“Yo’lda Abdulvahob dini islomni xokisor qilmoq qasdidagi **fosiqlar** xususida so’zlay ketdi.” (68-b) **Fosiq** - (arabcha - yo’ldan adashgan, axloqsiz) - 1) islom an’anasida diniy majburiyatlarni ado etmagan gunohkor; 2) axloqiy ma’noda - fahsh, buzuq odamdir. "Fosiq" kalimasi johiliyat davrida qo’llanilmagan. Qur’oni karimda o’zak holida yetti, tuslangan fe’l sifatida o’n va "fosiq" shaklida esa (ikkitasi birlikda, boshqalari ko’plikda) o’ttiz yetti joyda keladi. Ba’zi oyatlarda yahudiylar, xristianlar, mushriklar va munofiqlar haqida so’z borarkan, ko’plarining fosiq ekanlari bildiriladi (masalan, Baqara, 99; Oli Imron,110; Movda, 47, 59; Tavba, 67); boshqa ayrim oyatlarda esa, fisq va fusuq mo’minlarga nisbatan ham ishlatiladi (Baqara, 197, 282; Nur, 4). Oyatlarda ma’lum qilishiga ko’ra, Alloh Fosiqlardan rozi bo’lmaydi, moliy ehsonlarini qabul etmaydi va o’zlarini hidoyatga erishtirmaydi. Ularni dunyoda jazolagani kabi, oxiratda ham jahannamga tashlaydi.⁵⁶

Osiy –“Abdulvahob xonadaga xo’mrayib qarab qo’ydi-da, “noshukr banda, **osiy** banda”, deb asabiy tarzda pichirladi.” (68-b) *Osiy* –(arabcha - isyon qiluvchi, itoatsiz, gunohkor) - diniy aqidaga ko’ra, Allohning buyruqlari, Payg’ambarning sunnat va ko’rsatmalariga rioya qilmaydigan, buyurilgan vazifalarni bajarish o’rniga ularni butunlay yoki qisman tark etadigan, sha’ran ta’qiqlangan ishlarni qiladigan

⁵⁵O’zbek tilining izohli lug’ati 5ildli. T:2006-2008. 4-jild 536-bet

⁵⁶Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 87-bet

shaxs. Osiy bandalarning taqdiri Allohga havola etiladi. Ahli sunna val jamoa aqidasi ko'ra, osiy banda agar kufr yoki shirkka ketmagan bo'lsa, har qancha katta-kichik gunohlariga qaramay musulmon-mo'min sanaladi, ya'ni kofir bo'lib qolmaydi, balki gunohkor hisoblanadi. Boshqa ba'zi diniy oqimlarga ko'ra, Osiy banda kufrga mahkumdir. Osiyning qilgan ba'zi gunohlari uchun bu dunyoda hadd – sha'riy jazobelgilangan. Misol uchun aroq ichganga darra uriladi. Osiyning qilgan har bir gunohi uchun u dunyoda alohida jazolar belgilangan. Osiy o'z gunohlaridan chin dildan tavba qilib, ularni qayta takrorlamasa, kechirilishi va'da qilingan.⁵⁷

Dahriy –“Sulton Ulug'bek gumroh, **dahriy**”, degan so'zlarni aytmoqlikka tili aylanmadi.” (72-b) **Dahriy** –(arabcha dahr –vaqt, taqdir, falak) –islom paydo bo'lmasdan ilgari arab jamiyatida keng tarqalgan aqida. "O'lim", "taqdir", "ajalning yetishi" ma'nolarini anglatgan. Bu aqidaga ko'ra, insonning taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan, u erkin iroda yoki ixtiyor egasi emas, peshonasiga "yozilgan" narsa albatta sodir bo'ladi va undan qutulishning iloji yo'q. Johiliya arablarida narigi dunyo borligiga, bu dunyoda zahmat chekkanga u dunyoda ajr, gunoh ishlar qilganlarga azob berilishiga ishonch yo'q edi. Borliqning egasi, oliy hokimi sifatida muayyan bir xudo emas, qandaydir "dahr", taqdiri falak, inson irodasi bilan hisoblashmaydigan va undan yuqori turadigan tasodifiy o'zgarishlar jarayoni tasavvur qilinardi. Ularning e'tiqodicha, o'limdan so'ng hamma narsa tugaydi, shuning uchun bugungi kun bilan yashab qolish kerak. Bunday hissiyot Qur'onda quyidagi so'zlar bilan ifodalangan: *"Ular deydilar: faqat bitta - bu dunyodagi hayotimiz bor - yashaymiz va o'lamiz; bizni dahr (vaqt, taqdir) halok qiladi"* ("Josiya" surasi, 24-oyat). Keyinchalik, islom adabiyotida "dahriy" so'zi "mo'min" so'zining ziddisifatida ishlatila boshlandi. XIX asrda dahriy atamasi "materialist" (moddiyun) tushunchasining istilohi sinonimi sifatida qo'llanilgan. O'rta asrlarda bir qancha olim, mutafakkir vashoirilar (masalan, Mansur al-Halloj) dahriylikda ayblanib, shafqatsiz jazolangan. Hozir ham musulmon dunyosida dahriylik qoralanadi. Dahriylik va ateizm bir ma'noni anglatmasa-da, sho'rolar davrida ularni sinonim so'z sifatida ishlatish rasm bo'lib qolgan edi.⁵⁸

⁵⁷Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 227-bet

⁵⁸Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 68-bet

Kofir– “*Shariat hukmlarini nazar-pisand qilmay, nojinslar etagini tutganingiz kamlik qilib, endilikda javjangiz ham kofir jinlar ila tillashib, iblis vasvasasigatushibdir.*” (162-b)**Kofir**–kufir qiluvchi kishilar. Kufir –(arabcha - satr, to‘smoq; inkor etmoq) -imonsizlik; Islomni tan olmaslik yoki uning amallarini bajarmaslik. Kufrga jiddiy gunohlar va jinoyatlar: shirk keltirish, namozdan voz kechish, sehrgarlik, zinokorlik, o‘z joniga qasd qilish, ichkilikbozlik, qimor o‘ynash va b. kiradi. Shuningdek, olimni o‘z obro‘siga ishonib, mo‘min-musulmonlarni haq yo‘ldan chalg‘itib boshqa yo‘lga boshlashi ham kufrga kiradi. Kufrga munosabat islomning dastlabki davridan boshlab turlicha bo‘lgan. VII asrning 2-yarmida xorijiyalar, ularga o‘xshagan har bir musulmonni *kofir*, ya’ni *dinga ishonmovchi, uni rad etuvchi* deb hisoblashgan. VII -VIII asr boshida murji’iyalar tarkibidan "mo’tadil" oqim ajrab chiqib, ularning fikricha kufir sodir etgan kishi kofir bo‘lmaydi va u musulmonlar safidan o‘chirilmaydi, uning qilmishi haqida faqat Qiyomat kuni Allohgina hukm chiqara oladi. Kofirning turi uchta:

1. *Haqiqiy kofir* –dilida ham, tilida ham o‘zining kofirligini iqror etish. Bunday odamlar haqiqiy kofirlardir.

2. *Inodiy kofir* –Allohning haqligini, Muhammad (s.a.v)ning haqiqiy payg‘ambar ekanligini bila turib, qaysarlik qilib va arzimagan sabablarni ko‘rsatib imon keltirmaslik. Bunga mal’un shaytonning va Abu Tolib (Muhammad (s.a.v)ning amakilari)ning kufrlari misol bo‘la oladi. Zero, shayton Allohning zot-u sifatini yaxshi bila turib, Uning farmonini bajarmadi. Odam (a.s)ga sajda qilmay tavqi la’nat va kufrga ega bo‘ldi. Abu Tolib esa, asosan, o‘z qo‘lida o‘sib voyaga yetgan Muhammad (s.a.v)ning rostgo‘yligi va haqiqiy payg‘ambarligini yaxshi bilsa-da, tengqurlari, badavlat, nufuzli mushriklar oldida xijolat bo‘lib qolmaslik uchun o‘shalar imon keltirmaguncha men ham imon kalimasini aytmayman, deb olamdan o‘tdi.

3. *Hukmiy kofir* -ba’zan shariatga xilof ishlarni qilish yoki kufir so‘zlarini bilib-bilmay gapirib qo‘yish sababli kufrga hukm qilinuvchi holat. Masalan, bir musulmon odam Qur’onni tepsayoki shariatni masxara qilsa yoxud "namoz farz emas", "to‘ng‘iz go‘shti harom emas" kabirad so‘zlarini aytsa, musulmonchilikning boshqa hamma

ko'rsatmalarini bajarayotgan bo'lsa ham, u kofir deb hukm qilinadi. Xoh haqiqiy, xoh hukmiy kofir bo'lsin, umr bo'yi qilgan toat-ibodatlari bekor bo'ladi, nikohi buziladi.⁵⁹

Asarda "Alloh" so'zi bilan bog'liq ko'plab birikmalarga duch kelamiz:

"-Astag'firulloh! –dedi ovozini ko'tarib. Nelarni demoqdasiz? Tavba qiling, darxol istig'for ayting." (66-b) Astag'firulloh –"Xudo, o'zing saqlagin; o'zing kechir ma'nosini bildiradi."⁶⁰ Shuningdek, ajablanish, hayratni ham anglatib keladi. Xususan, yuqoridagi misolimizda shu ma'no ifodalangan. Yoki bu so'z g'azab, achchiqlanish aralash hayratni, norozilikni ham bildirib keladi. Masalan:

"Tasbeh o'girayotgan kishi "Astag'firulloh" deb pichirlab, chap qo'li bilan soqolini siladi-da, o'girilib Qamariddinga qarab xo'mraydi" (91-b);

"-Inshaalloh! Ungacha balki yuz yil, balki undan ko'proq yillar o'tar, hakimlar barakali umr ko'rmoqlik sirlaridan voqif bo'larlar..." (80-b) Inshaalloh – Xudo xohlasa, xudoga xush kelsa degan ma'noni bildiradi.⁶¹ Yaxshi istak bildirish uchun qo'llanadigan va xudoyo, ilohim kabi ma'nolarda keladigan duo iborasidir.

-Barakalloh! Tabobatdagi zehningni menga aytishmagan edi. (80-b) Barakalloh –(arabcha seni xudo muborak qilsin; ofarin) undov so'z.

1. Kimsaning biror harakatidan mamnunlikni, ma'qullash, maqtovni anglatadi. Yuqoridagi gapda shu ma'no anglashilgan.

2. Ma'qullash, tasdiq ma'nosini anglatadi. Masalan, *"Barakalloh, ota o'g'il, raoyo birlan baroyoning boshini silasangiz, kam bo'lmagaysiz", deb maqtashlarning oqibatidir bu.* (88-b)

3. Norozilik, qoniqmaslik ma'nosini anglatadi. Masalan: -Barakalla-e –dedilar masxara qilganday kulib. E. Raimov, "Ajab qishloq".⁶² Lekin "Falak" da bu ma'noda qo'llanmagan.

-Taqdir, ma'lumingizkim, shafi'ul-muznibin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir odamni zinoda ayblab rajmgga buyurmoqdan avval obdan so'rab surishtirganlar." (95-b) Rasululloh –"Allohning elchisi". Rasul (arabcha –elchi) - islom an'anasida Alloh tomonidan tanlab olinib, vakil qilingan va targ'ibot yuritish,

⁵⁹Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 170-bet

⁶⁰O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildli. T:2006-2008. 1-jild. 111-bet

⁶¹O'zbek tilini izohli lug'ati.5 jildli. T:2006-2008. 2-jild. 221-bet

da'vat qilish vazifasi topshirilgan, ilohiy kitob nozil qilingan payg'ambar. Muhammad (s.a.v)ga nisbatan doimo rasul nomi qo'llanib kelinadi, bu hatto tashahhud (kalimai shahodat)da ham ifodalangan. Nabiyy - kitob nozil qilinmagan payg'ambar. Shu boisdan ham har bir rasulni nabiyy deb atash mumkinligi, ammo nabiylarni rasul deb bo'lmasligi qayd qilingan.⁶³

Shuningdek, yuqoridagi parchada diniy-islomiy "**rajm**" so'zi qo'llanganki, bu izohni talab qiladi. Rajm -toshbo'ron qilish, faqat zino qilganlik uchun qo'llaniladigan qatl turidir. Rajm haqidagi masala to'laligicha fiqhning ukubot bo'limiga tegishlidir. Rajm johiliyat davridagi huquqiy normalardan qabul qilinib, Qur'on va sunna bilan tasdiqlangan. Rajm faqat sud hukmiga binoan, qozi yoki uning vakilining nazorati ostida amalga oshiriladi. Maxsus ajratilgan yerda to'plangan kishilar mahkumga qarata tosh otib, uni o'lguncha toshbo'ron qiladilar. Agarda zino guvohlar ko'rsatmalari bilan aniqlangan bo'lsa, birinchi toshlarni guvohdor otishi lozim, agarda zinokor o'z gunohiga iqror bo'lsa - imom yoki qozi otishi kerak bo'ladi. Jazolanuvchi o'zini chetga tortmasligi yoki qochib ketmasligiga uchun bog'langan yoki tizzasi yoxud beligacha yerga ko'milgan bo'lmog'i lozim. Ayol kishi qatl etilayotganpaytda uni chachvon bilan yaxshi o'ralgan bo'lishiga va o'layotib badani ochilib qolmasligiga e'tibor berish talab qilinadi. Agar zinokorning aqli noraso ekanligi aniqlansa, qatl bekor qilinadi. Agarda homilador ayol jazoga tortilishi kerak bo'lsa, unda ba'zi mazhablarga ko'ra, to ayol tug'gunicha qatl qoldiriladi, boshqasiga ko'ra esa, emizish davri tugaguncha yoxud qatl umuman bekor qilinadi. Zinoni isbot qilish amalda juda murakkab bo'lganligi tufayli barcha zamonlarda kamdan-kam hollarda rajm jazosi qo'llanilgan. Kishini ko'cha-ko'yda hech qanday tekshirishsiz va sudsiz toshbo'ron qilingani haqida keng tarqalgan tasavvurlar g'irt cho'pchakdan boshqa narsa emas.

Shuningdek, qissada nikoh bilan bog'liq bo'lgan diniy-islomiy so'zlardan ham foydalanilgan. Masalan, *ojiza, ahli ayol, taloq qilmoq, idda, nomahram* kabi so'zlar bunga misol bo'ladi.

⁶²O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildli. T:2006-2008 1-jild. 164-bet

⁶³Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 247-bet

-“*Ko’rib turganingiz bu oji²aa²h²li ayolimizdir*” (100-b)

-“*Ehtimol, nikohiga olmish odam bu ojizani taloq qilsa...*”(102-b) Taloq qilmoq -(arabcha - qo’yib yubormoq, ajralmoq) - shariatga ko’ra, nikohning bekor qilinishi. Er tomonidan shu so’zning aytilishi xotinni barcha xotinlik majburiyatidan to’la ozod qiladi. Bu holatda er tomonidan xotinga berilgan mol-mulk (mahr) xotinda qoladi, er xotinni idda muddati o’tguncha moddiy ta’minlab turishi kerak. Shariatda 2-taloqdan keyin ham er-xotinni qaytadan yarashtirishga ruxsat etiladi (Qur’on, 2:229). 3-marta taloqdan keyin esa, shariat bunga yo’l qo’ymaydi. Taloq qilingan xotin boshqa erga chiqishi uchun belgilangan idda muddatini o’tashi kerak. Er 3 marta taloqdan keyin yarashmoqchi bo’lsa, xotin boshqa erga birga yashash niyatida turmushga chiqishi, 2-er xotinni taloq qilsa yo vafot etsa, xotin idda muddatini o’tagandan so’ng qayta nikohlash mumkin. Bolalar onasi bilan qolishi mumkin, xususan o’g’il bolalar 7-8 yoshgacha, qizlar turmushga chiqish vaqtigacha (13-15 yoshgacha). Mana shu muddat orasida ota ularni moddiy ta’minlab turmog’i lozim bo’ladi.⁶⁴

“-*Idda-chi? Taloqdan so’ng bir yuz yigirma kun nikohga ijozat yo’q*”(102-b)

Idda -*i d d a t a l-m a r ‘ a* (arabcha -ma’lum vaqt, ayollar uchun belgilangan muddat) -shariat bo’yicha eri o’lgan yoki eridan ajralishgan xotinlar boshqa erga chiqishi uchun o’tishi shart bo’lgan muddat. Bunday ayollarga idda o’tmaguncha erga chiqish taqiqlangan: beva uchun idda 4 oy-u 10 kun, eridan ajralishgan hayz ko’rmaydigan ayol uchun 3 oy, hayz ko’radigan ayolning iddasi uch hayz belgilangan. Muddatning belgilanishi Qur’onga asoslangan holda shariatga kiritilgan bo’lib, ayolning ajralgan yoki o’lgan eridan homilasi bor yoki yo’qligini aniqlash bilan bog’liq bo’lgan. Eridan taloq ila ajragan ayol, iddani eri ila yashagan uyda o’tkazishi lozim. Chunki bu yana qayta yarashish uchun berilgan imkoniyatdir. Homilador ayolning eri vafot etsa yoki taloq qilgan bo’lsa, iddasi tug’guncha bo’lib, tug’sa iddadan chiqadi.⁶⁵

“-*Demak, siz u qiz uchun nomahramsiz, shundaymi? –deb Shamsibek so’roqqa qo’shildi.*”(154-b) Nomahram -(arabcha mahram – qarindosh) - shariatga

⁶⁴Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 277-bet

⁶⁵Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 117-bet

xos tushuncha; ayol kishi yuzi ochiq holda ko'rishishi mumkin bo'lmagan erkak yaqin qarindoshlar. Shariatga ko'ra, ayolning otasi, o'g'illari, aka-uka, amaki, buva, tog'a, qaynatasi mahram, undan yiroq turgan erkak qarindoshlar va yot erkaklar nomahram hisoblanadi. Ayol kishining mahram doirasiga kirgan erkaklar bilan nikoh qilinishi taqiqlangan. Ayolga uylanishi mumkin bo'lgan erkaklar nomahram hisoblanadi. Ayol har bir oilaning or-nomusi, himoyaga muhtoj inson. Shu boisdan payg'ambarimiz (a.s) ayollar safarga mahramsiz chiqmasinlar, deganlar.⁶⁶

Yozuvchi qissada diniy-islomiy harakat-holatni bildiruvchi bir qancha tushunchalardan ham unumli foydalangan. Quyidagi misollarga e'tiborimizni qaratsak:

*1. "-Qiyomat kuni jannatda katta buvilarimiz bilan diydor ko'rishganimizda shu palak bizga **shafolat bo'lar** ekan..."(61-b)*

Shafolat bo'lmoq (arabcha) - boshqa birovga qo'shilib, unga yordam berish va yonini olib, biror narsani uning uchun so'rash. Ko'pincha, shafolat martabasi va hurmati yuqori shaxsning o'zidan past odamning tarafini olishi tushuniladi. Qiyomatdagi shafolat ham shundandir ("al- Mufradot fi Rariybil Qur'on" 263 s.) Shafoatchi o'zini shafolat qilnadigan shaxsga unga yordamberish va uning uchun bir narsani tilash uchun qo'shadi. Shuningdek, Allohning huzurida shafolat beruvchilar hamgunohkorlarga ko'mak beradilar. Shafolat bir necha turlarga bo'linadi:

1-ulug' shafolat bo'lib, barcha payg'ambar (a.s)lar ichidan payg'ambar Muhammad (s.a.v)ning o'zlariga xos qilingandir. Buning dalili Buxoriy, Muslim va boshqalar rivoyat qilgan "ulkan shafolat" hadisidir.

2-Payg'ambar (s.a.v)ning, yaxshiliklari va yomonliklari barobar bo'lib qolgan odamlar jannatga kirishlari uchun shafolat qilishlari.

3-Payg'ambar (s.a.v)ning boshqa bir do'zaxga amr qilingan odamlarni unga kirmasliklari uchun shafolat qilishlari.

4-Payg'ambar (s.a.v)ning jannatga kirgan odamlarning amallari savobi taqozo qilgan darajadan yuqori darajaga ko'tarish uchun shafolat qilishlari.

⁶⁶Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 191-bet

5-Ba'zi qavmlarni jannatga hisobsiz kirishlari haqidagi shafuat. Bu qismga dalil Ukosha ibn Musoning hadisidir.

Rasululloh (s.a.v) unga duo qilib, Alloh uni jannatga hisobsiz kiradigan yetmish ming kishilardan qilishini so'raganlar (Buxoriy, Muslim).

6-Azobga sazovor odamlardan azobni yengillatish uchun shafuat. Payg'ambar (s.a.v) amakilari Abu Tolibning azobini yengillatish haqidagi shafuatlariga o'xshash (Muslim, Abu Sa'vd al- Xudriy rivoyat kilgan).

7-Payg'ambar (s.a.v)ning barcha mo'minlarga jannatga kirish izni berilishini so'rab qiladigan shafuatlari.

8-Payg'ambar (s.a.v)ning o'z ummatlaridan gunohi kabira qilganlariga shafuat qilishlari. Ushbu 8 tur Payg'ambar (s.a.v)ga va shafuat qilinuvchiga nisbatandir.

Shafuat shafuatchiga qarab ham 8 turli bo'ladi:

1-Anbiyo (a.s)larning ummatlariga shafuati;

2-Farishtalarning gunohkorlarga shafuati;

3-Kichik bolalarning ota-onasiga shafuati;

4-Allohning yo'lida shahid bo'lganning o'z ahlidan 70 kishiga shafuati;

5-Qur'onni yod olgan kishining ahli baytiga shafuati;

6-Mo'minlarning bir-birlariga shafuati;

7-Qur'oni karimning o'z qorisiga shafuati;

8-Ro'zaning ro'zadorga shafuati.

Qur'oni karimning 2-sura, 255-oyatida shafuat to'g'risida, jumladan, shunday deyilgan: "*Uning huzurida hech kim (hech kimni) Uning ruxsatisiz shafuat qilmas*".⁶⁷

2.-Nelarni demoqdasiz? Tavba qiling, darhol istig'for ayting. " (66-b)

Istig'for aytmq -(arabcha) - Allohdan gunohni kechirishni, afv etishni so'rash. Kimki qilgan gunoh ishlari uchun astoydil tavba qilsa, Alloh tavbasini qabul etadi, degan qat'iy ishonchga asoslanadi. Hadislardan biriga ko'ra, inson yomon ishning ortidan yaxshi ish qilsa, o'sha yomonligini yuvgan bo'ladi. Qur'oni karimda "*...saharlarda istig'for aytuvchilar*" (3.17), deyilgan. Ibn Kasir istig'forning eng afzali sahar paytidagisi ekaniga shu oyatni dalil qilgan. Rasululloh (s.a.v) deydilarki:

⁶⁷Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 346-bet

*"Alloh taolo har kecha dunyo osmoniga tushadi. Bu payt kechaning oxirgi uchdan biridir. Shunda Alloh subhonahu aytadi: "So'rovchi bormi, beraman. Duo qiluvchi bormi, ijobat etaman. Istig'for aytuvchi bormi, mag'firat qilaman..." Istig'for gunohlardan forig' bo'lishning, o'z-o'zini poklashning, tavba qilishga da'vat qilishning muhim vositasi hisoblanadi.*⁶⁸

*3."- U boshini egib oldi-da, **tasbeh o'girganicha** so'zida davom etdi..." (69-b)*

Tasbeh o'girmoq –"tasbeh" duolar va ibodat so'zlarini hisoblash uchun ishlatiladigan munchoq shodasidir. Tasbeh ishlatish keng tarqalgan barcha dinlarda uchraydi, dindorlik va taqvodorlik belgisi hisoblanadi. Musulmonlarda 33 bor subhonalloh, 33 bor alhamdulillah va 33 bor Allohu akbar kalimalari ushbu tasbeh bilan sanaladi.⁶⁹

*4."Sababki, ul kuni Barhayot shoh maqbarasi ostonasida **tilovat qilganimda** Qodiri muxtorning o'zi shohid..." (72-b)*

Tilovat qilmoq -ko'proq Qur'on o'qish ma'nosida ishlatiladi.

*5." Haq taologa **munojot qilib**, shafiqona marhamatini ayamasligini iltijo qildi." (111-b)*

Munojot qilmoq– (arabcha –iltijo) Islomdagi farzdan tashqari o'qiladigan namozlar bo'lib, har qanday dindorning ixtiyoriy iltijo va ibodat qilishi ham munojot hisoblanadi.⁷⁰

*5."-Hazrati ustoz, allomai jahon, Aflotun-u zamon mavlono Salohuddin Muso Qozizoda Rumiyning Jannat bog'iga **rihlat qilg'onlariga** olti yil bo'ldi." (144-b)*

Rihlat qilmoq –(arabcha, safar, sayohat; jo'nash, jo'nab (ko'chib) ketish) Ko'chish; o'lish ma'nolarida keladi. Yuqoridagi gapda efimizm shaklida "vafot etmoq" ma'nosida qo'llangan.

Umuman olganda, "Falak" qissasida diniy-islomiy so'zlar juda ko'p o'rinlarda ishlatilgan. Buning boisi asar XV asrga oid voqealarni hikoya qilishi va bu davrda jamiyatimizda islom dinining targ'ibi nihoyatda bo'lganligi bilan izohlanadi. Qissada,

⁶⁸Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 142-bet

⁶⁹Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 282-bet

⁷⁰O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildli. T:2006-2008. 2-jild 640-bet

ma'nodoshlari bilan hisobga olinganda, 130 ga yaqin diniy so'z va iboralardan foydalanilgan.

2.2. Yozuvchi asarlarida qo'llanilgan diniy so'zlarning o'zaro mushtarakligi

Yuqorida Tohir Malikning "Alvido, bolalik", "Nomus", "Falak" asarlaridagi diniy so'z va iboralarning qo'llanish xususiyatlari, mazmun-mohiyati bo'yicha ko'rib chiqdik. Bu asarlarda qo'llangan ayrim diniy so'z va iboralar takroriy ko'rinishlarda ham qo'llangan. Masalan, bir asarda ishlatilgan diniy iboradan boshqasida ham ma'lum bir vazifada foydalanilgan. "Nomus" hikoyatida bir o'rinda **"Sirot kechmayqah-qah kulma"** gapi qo'llanadi :

"Sirot kechmay qah-qah kulma", degan hikmatdan bebahra boshibuzuqlar davrasi xunuk qiyqiriqlar bilan Mohinurni olqishlayverdi." (25-b) Sirot (arabcha - yo'l) - islom manbalarida Sirotul Mustaqim - qiyomat kuni jahannam uzra tortilgan qilko'prik; fors va turkiyzabon xalqlarda Pulsirot ("Sirot ko'prigi") deb yuritiladi. Diniy manbalarga ko'ra, jannatga eltuvchi yagona yo'l mazkur ("soch tolasidan yupqa, shamshirdan o'tkir") Pulsirot bo'lib har bir banda undan yurib o'tishga majbur etiladi. Ba'zilar chaqmoq uchqunidek tez, ba'zilar uchqur otdek, ba'zilar sekinroq o'tsa, ba'zilar qulab jahannamga ravona bo'ladi.⁷¹

Xuddi shu hikmatli so'z "Falak" qissasida ham uchraydi: *"Ammokim, ustodlarim "Sirot kechmay, qah-qah kulma", deb kaminani fuqaro haqiga xiyonatqilmoqlikning naqadar gunoh ekanidan ogohlantirishgan."*(74-b)

Har uchala asarda "shayton" so'zi bilan bog'liq ko'plab tushunchalarga duch kelamiz. Birgina "Alvido, bolalik" romanida *oq shayton, qora shayton, shaytoniynafs, shayton peshobi, shayton yo'rgagi, shayton quli, shaytanat* kabi birikmalarni yuqorida ko'rib izohlagan edik. Shuningdek, bu so'z bilan bog'liq birikmalar "Nomus" va "Falak"da ham uchraydi. "Nomus"da *hizbut-shayton,*

⁷¹Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004.

shaytonalayhila'na, shayton ufurgan olov, iblis g'alayoni, shaytoniy qilig', iblis raqsi kabi jumlar qo'llangan bo'lsa:

“Bir kishi yaqinlashdi, biroq u mo'min emas, kechagiga o'xshagan –aft-basharasi odam ersa-da, asli *hizbut-shayton* toifasidan edi.”(8-b);

“Ishq o'tiga *shayton alayhila'na* moy purkab shunchalar alanga oldirdiki, qizning ko'zlari qamashib, zalolat botqog'i qayda-yu, hidoyat gulshani qayda –ajrata olmay qoldi.”(16-b);

“Vujudi *shayton ufurgan olovda* kuyayotgan zanjiga unga ergashdi.”(21-b);

“Mo'mina qayin inisiga tabassum hadya etmagan, lekin eriga yoki qaynanasiga jilmayib qaragan kezlari yigitchaning yuragidagi *iblis g'alayoni* avj olardi.”(38-bet);

“Qayin inisining *shaytoniy qilig'i* uchun uni qarg'asa ham arzirdi.”(42-bet);

“Shayton chalayotgan nog'ora ohangiga barchalari birday mast bo'lib, so'ng esa birday *iblis raqsiga* tusha boshladilar.”(53-b)

“Falak”da esa shayton so'zi bilan bog'liq quyidagi birikmalardan foydalanilgan:

“Lekin...*noumid shayton*. Balki xavotiri noo'rindir.”(60-bet);

“Mahfuzami? deganida Shamsibek Abdulvahobning ko'ngliga *shayton ufurganini*, yuragida yomonlik uyg'onganini sezdi.”(84-bet); “Shayton ufurmoq” iborasi yuqorida ‘Nomus’da ham keltirilgan edi.

“O'gling *iblisning tilini* biladi, iblislar bilan tillashadi, deb tinchimizni buzdi.”(110-bet);

“Azozil qachon odamga rahm qilibdi ekan?”(120-bet)

Shuningdek, diniy-islomiy mansab nomlari ham har uch asarda mavjudki, biz yuqorida “Alvido, bolalik”da ishlatilgan *xoja, mulla, domla, imom* kabilarni izohlagan edik. “Falak”dagi esa *pir, qalandar darvesh, murid* kabi tasavvufiy mansab nomlari bilan tanishib chiqqan edik. “Nomus”da ham diniy-tasavvufiy mansab va unvon nomlari qo'llangan ayrim o'rinlar bor:

“*Shayx ko'kragida uyg'ongan qattiq og'riqdan uyg'onib ketdi.*”(5-bet) **Shayx** -(arabcha - keksa, oqsoqol; qabila, urug', oila oqsoqoli) - Arablarda islomdan ilgari urug', qabila boshliqlari, katta patriarxal oila oqsoqollari shayx deb atalgan.

Musulmon mamlakatlarida hozir shayx oliy diniy maktablarning mudarrislari va yirik ulamolarning unvoni sifatida ham qo'llaniladi. O'rta Osiyoda shayx ko'pincha muqaddas mozarlar va qadamjolarida sadaqa va nazr-niyoz olib turadigan ruhoniylar tabaqasiga nisbatan ishlatilgan.⁷²

“**Zohid** birodarim ila haj ziyoratiga otlandik.”(6-bet) **Zohid** -(arabcha yuz o'giruvchi, tark etuvchi) -tarkidunyo qilgan kishi. Zohidlar musulmonlarni bu dunyo rohat-farog'atidan voz kechishga, Ollohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etishga undaydilar.⁷³

“*Dasturxon sahabalarniki kabi bir burda qotgan non bilan ko'katlardan iboratedi.*” (10-b) “**Sahoba**” so'zi yuqorida “Alvido, bolalik” da ham qo'llangan edi va “ansorlar” so'zi bilan birgalikda izohlangan edi.

“*G'iybat ahli taqvodor otasini rind toifaga qo'shib qo'yar bo'lsa, busharmandalikka chiday olarmi ekan?*” (20-b) **Rind** -(forscha-chaqqon, olg'ir; mug'ambir; dovyurak, botir; soxta xudojo'y) 1.shariat qoidalariga bo'ysunmovchi; erkin fikr yurituvchi; dovyurak; 2. Tasavvufda botinan taqvodor xudojo'y bo'lsa-da, zohiran mayxo'r, ishratparast bo'lib yashovchi kishi.⁷⁴ Yuqoridagi parchada “rind” so'zining ikkinchi ma'nosi qo'llangan.

“*Nabirasini kuyovga uzatgach, tushida piri murshidini ko'rdi.*”(45-b) **Pirimurshid** so'zidagi “pir” unvoniga “Falak” asarida izoh berilgan edi. **Murshid** (arabcha - yo'l ko'rsatuvchi) -tasavvufda tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir, shayx va ustozdir. Demak, yuqoridagi parchada ma'nodosh so'zlar izofali ko'rinishda qo'llangan ekan.

“Falak” asarida *pir, murid, darvesh, qalandar, shayx* diniy-tasavvufiy mansab nomlari bilan bir qatorda *muhtasib, naqib, imom xatib, mullo, qozi* kabi diniy-islomiy mansab nomlari ham mavjud.

“**Muhtasibimiz Sayyid Oshiq masjidda yolg'iz o'zlari tahajjud namozini adoetgach, tilovati Qur'on qilib o'lturganlarida arz-u samo birdan qisirlab, Shohizinda tomonda yashin chaqnab ketibdi ekan.**” (69) **Muhtasib** -(arabcha -

⁷²Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 342-bet

⁷³Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 335-bet

⁷⁴O'zbek tilining izohli lug'ati.5 jildlik. Toshkent:2006-2008. 3-jild. 338-bet

nazorat qiluvchi) - oʻrta asr musulmon davlatlarida islom marosimlari, urf-odatlar va shariat qonunlarining bajarilishi, odamlarning jamoat joylarida yurish-turishi ustidan nazorat qiluvchi amaldor. Shariat tizimiga xos mansabdor shaxslar toifasiga kirgan. Oʻrta Osiyoda bunday amaldorlar rais deb atalgan. Muhtasiblar bozorlardagi narx-navo va oʻlchov asboblarning toʻgʻriligi ustidan nazorat qilish, urf-odatlarining bajarilishini kuzatish, diniy vazifalarini bajarmagan kishilar (masalan, ramazon oyida roʻza tutmaganlar)ni jazolashga hukm chiqarish va oʻsha yerning oʻzida hukmni ijro ettirish kabilar bilan shugʻullangan. Muhtasibni odatda davlat boshligʻi tayinlagan va u qozi bilan barobar ish koʻrgan. Ammo muhtasib maʼmuriy jihatdan qozidan pastroq lavozim hisoblangan va undan ancha kam maosh olgan. Muhtasib shaharni non bilan taʼminlash, taqchil paytlarda uning bahosini maʼlum chegaradan oshirmaslik, shuningdek, kemalar va hatto hammol, yuk tashuvchi hayvonlarga qancha yuk ortilganini ham tekshirib turish va h.k. bilan shugʻullangan. Muhtasib lavozimi ayrim xristian davlatlari (Quddus qirolligi, Armaniston)da ham boʻlgan. Yaqin-yaqin vaqtlargacha (1920-yilga qadar) Buxoroda muhtasib turli vazifalarni bajarib kelardi.⁷⁵

“Qamariddin otdan tushdi-da, tomoshatalab odamlar orasidan oʻtib, “naqib shu kishidir”, degan taxmin bilan sallali kishiga yaqinlashgach, salom berdi.” (91) **Naqib** -(arabcha - boshliq, yetakchi, rais) -oʻzlarini Muhammad (s.a.v) avlodlaridan deb hisoblaydigan sayid (oʻzbeklar orasida -toʻra)lar jamoalarining yetakchilari, rahbarlarining lavozimi. Naqib lavozim sifatida oʻrta asrlarda xalifalar hukmronligi davrlarida vujudga kelgan, hukmdorlar naqiblar orqali sayidlar jamoalari bilan muomala qilgan. Naqiblar xazinadan taʼminlab turilgan. Keyinchalik naqiblar sayidlar jamoalari va avlodlarining rahbarlari, ularning hayoti va turmushida yoʻl-yoʻriq koʻrsatuvchi rahnamolari sifatida ish koʻrgan. Xorijiy mamlakatlarda naqiblar hozir ham bor, ular sayidlar jamoalari hayotini boshqaradi, ular nomidan davlat hokimiyati vakillari bilan muomala qiladi. Naqiblik lavozimi avloddan avlodga meros boʻlib oʻtgan.⁷⁶

⁷⁵Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 213-bet

⁷⁶Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 220-bet

“Imom xatibni chaqiravering, -dedi Qamariddin uning so’zini bo’lib, - nikoho’qib qo’ysun

“-Taqsir, o’zlari mullo ko’rinadilar, -dedi qariya Shamsibekka murojaat etib.”

(101) Imom xatib, mullo so’zlari “Alvido, bolalik”da ham qo’llangan va ularning izohi berilgan edi.

“Qozilar qo’li shariat hukmlari ijrosida baquvvat bo’lmoqligi darkor”, degan amri oliyga bo’yinsunmaganingiz uchun siz janob ellik darraga loyiqsiz!” (126)

Qozi- (arabcha - tayin qiluvchi, hukm chiqaruvchi) - musulmonlar amaldor-hakamining umumiy qabul qilingan nomi, hukmdor tomonidan tayinlanib, shariat asosida sudlovni bajaradi. Dastlabki qozilarni xalifa Umar ibn Xattob Madina, Basra, Kufada tayinlagan. Shundan so’ng qozilar yirik shaharlar va viloyatlarda harbiy yurishlar vaqtida esa qo’shinlarda ham tayinlana boshlagan. Qozini faqat xalifa tayinlashi mumkin edi, u oliy huquqli nufuzli odam hisoblanadi. Qozining hukmi ustidan xalifaga shikoyat qilish mumkin bo’lgan, bunday shikoyat natijasida qozi ishdan bo’shatilishi mumkin edi. VIII asrning 2-yarmida oliy qozi - qozi ul-quzzot lavozimi joriy qilindi, unga xalifa nomidan xalifalikdagi barcha qozilarni tayinlash va ularning hukmi yuzasidan da’volarni qabul qilish huquqi berilgan.⁷⁷

Shuningdek, bu asarlarda yozuvchi diniy-islomiy tarixiy va afsonaviy shaxslarni ham keltirgan. Masalan, “Falak”da Umar Hayyom, Ahmad Yassaviy kabi shoirlar; sahoba Qusam ibn Abbos; Muso, Lut, Odam alayhissalom kabi diniy-afsonaviy shaxslar keltiriladi.

Asarda Umar Hayyomning quyidagi ruboiysi Shamsibek tomonidan aytiladi:

“Yo Rab, loyimni-ku qorgan o’zingsan,

O’rish-arqog’imni o’rgan o’zingsan.

Yomonmanmi, yaxshi, men qandoq qilay?

Taqdir manglayini bergan o’zingsan.” Ushbu ruboiyda uchragan *Rab, taqdir manglayi* so’zlari diniy-islomiy so’zlar jumlasiga kiradi.

Quyidagiparchada esa hazrat Qusam ibn Abbos nomi tilga olinadi:

⁷⁷Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 239-bet

*“Davlatpanohingizga **hazratQusom** arvohlarining qarg’ishi tegdi.”*(69) **Qusam ibn Abbas** – ibn Abdulmuttalib ibn Xoshim al-Qurayshiy (taxm. 624-677) - sahobalardan. Muhammad (s.a.v)ning amakivachchalari. Otasi - Abbas ibn Abdulmuttalib - Rasululloh (a.s)ning amakilari. Onasi - Rasululloh (a.s)ning zavjalaridan bo‘lgan Maymunaning singlisidir. G’iyosiddin Javhariyning yozishicha, hazrat Qusam payg‘ambar (a.s) vafot etganlaridan so‘ng ul zotni yuvganlardan biridir. Rivoyatga ko‘ra, Qusam ibn Abbas bu paytda 8 yoshda bo‘lgan, uning aft-u angori va qiliqlari butkul payg‘ambar (a.s)ga o‘xshash bo‘lgan.⁷⁸

Asarda tasavvuf olamida shuhrat qozongan Ahmad Yassaviyning quyidagi mashhur hikmati ham keltiriladi:

*“Beshak biling, bu dunyo barcha eldin o‘taro,
Ishonmag‘il molingga, bir kun qo‘ldan ketaro.
Ota-ona, qarindosh qayon ketdi, fikr qil,
To‘rt oyog‘lig‘ chubin ot bir kun sanga yetaro.
Dunyo uchun g‘am yema, Haqdin o‘zgani dema,
Kishi molini yema, sirot uzra tutaro...”*(89) Hikmatda keltirilgan *Haq, chubin ot(tobut), sirot* so‘zlari diniy so‘zlarga misol bo‘la oladi.

Diniy-afsonaviy shaxslardan, yuqorida aytganimizdek, Muso, Lut va Odam alayhissalom nomlari asarda uchraydi:

*“Alloh taolo “Fir‘avnga qattiq-qattiq gap aytma, hatto u bilan muomalani yumshoq qil”, deb **hazratiMuso alayhissalom**ga farmoyish berganini bilarmisiz?”*(86) Muso (a.s) - Qur‘onda nomi tilga olingan payg‘ambarlardan biri. Misr podshosi (Fir‘avn)Ramses II davrida tavallud topdi. Rivoyatga ko‘ra, Ramses II folbinlari "Bani Isroil"qabilasida bir go‘dak tug‘ilib, u voyaga etgach, podshohning taxtdan ketishiga sababbo‘ladi deb aytganlar.⁷⁹Bu go‘dak Muso alayhissalom edi.

*“**Lut alayhissalom**ning la‘natlanmish qavmiga Alloh tomonidan yuborilgan jazoga ko‘ra, shariatimiz ham aybi isbot topgan zinokorlarni shunga munosib topganlar.”* (96) **Lut alayhissalom** -Qur‘onda nomi zikr etilgan payg‘ambarlardan

⁷⁸Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 244-bet

⁷⁹Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 204-bet

biri. Harron shahrida (Mesopotamiya) da tavallud topib, Ibrohim (a.s) bilan birga Falastinga borgan. Sadum, Amura va uning atroflaridagi yerlarda chorvachilik bilan shug'ullangan. Payg'ambarlik darajasiga yetishgach, odamlarga pand-nasihat qilgan, Allohning birligiga iymon keltirishga chaqirgan. Biroq axloqi buzuq Sadum aholisi bachchavozlik odatini tark etmay, Lut (as)ning o'zini bu yurtdan haydab chiqarmoqchi bo'ladi. Farishtalar unga oilasi va iymonli kishilar bilan birga (xotinidan tashqari, chunki xotini Allohning qahriga uchragan edi) shahardan chiqib ketishni buyurganligi rivoyat qilinadi. Qur'onning "Hijr" surasi, 61-65-oyatlari va 74-oyatida bayon qilingan. Lut (as) ma'lum masofaga yetib olgach, shahar ostin-ustun qilib yuborilgani, qavm ustiga sopol tosh yog'dirishgani bayon etilgan. Hozir bu dinsiz qavm yashagan shahar o'rnida dengiz mavjud bo'lib, u "O'lik dengiz" va "Lut oroli" deb nomlanadi.⁸⁰

*“Alloh taoloning yetuk hikmat va to'liq qudrati bilan **Odamalayhissalomni yaratganligi ham, uning farzandlaridan ayrimlarini rasul qilib, haq yo'lga da'vat etsinlar uchun xalq orasiga yuborgani ham bir mo'jizadir.**”*(113) **Odam alayhissalom** - Qur'onga ko'ra, Alloh tomonidan yaratilgan yer yuzidagi birinchi odam va inson zotining otasi. Alloh Odam (as)ni loydan o'zining yerdagi o'rinbosari (xalifa) sifatida yaratib, unga o'z ruhidan jon ato etgan. Odam (as) Abul-bashar (insoniyat otasi) deb ham ataladi. Islomda Odam (as) birinchi payg'ambar hisoblanadi. Alloh Odam (as)ga barcha narsalarning nomlarini o'rgatdi va bu bilan Odam (as)ni farishtalardan yuqori qo'ydi (Baqara surasi, 32-33-oyatlar) va farishtalarga Odam (as)ga bosh egib sajda qilishni buyurdi. Faqat Iblis sajda qilishdan bosh tortdi (Sod surasi, 73-78-oyatlar). Iblis takabburligi va sarkashligi tufayli jannatdan quvildi. Odam (as) jufti haloli Momohavo bilan jannatda yashab, ularga barcha ne'matlardan yeyishga ruxsat berildi, faqatgina bir daraxtning mevasidan yeyish taqiqlandi (A'rof surasi, 19-21-oyatlar). Iblis Odam (as) bilan Momohavoni aldab taqiqlangan daraxt mevasini yediradi. Buning jazosi evaziga ular jannatdan chiqarilib, ularning avlodlari yerda yashashga va mehnat qilishga mahkum etiladi.⁸¹

⁸⁰Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 173-bet

⁸¹Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 226-bet

Yuqorida “Falak” asarida keltirilgan diniy-afsonaviy shaxslar haqida ma’lumot berildi. “Nomus” hikoyatida esa **Robia ul-Adaviyya** tilga olinadi:

“Shu asnoda Robia ul-Adaviyyani esladi-da, pichirlab duo qildi: “Yo Alloh, bu ojizangni o’z hifzi-himoyangga ol. Ul maxdumai maxzurai xos, ul masturai ixlos, ul so’xtai ishq-u ishtiyoq, ul oshiftai qurb-u ixtiroq, maryami soniyi maqbul Robia ul-Adaviyya, rahmatullohi alayho martabasini bu ojizangga ham ber.”(13) **Robia ul-Adaviyya** -(713/714-801) - Basra zohidlarining taniqli vakilasi. Bolaligida cho’ri qilib sotilgan. Keyinchalik xudojo’yligi va zohidlarga xos turmush tarziga ixlos bilan rioya etgani sababli ozodlikka chiqarilgan. Bir necha yil sahroda yolg’iz yashagan. Robia ul-Adaviyya Allohni sevishdan boshqa jamiiki narsalarni rad etish tarafdori bo’lgan. Allohdan hech bir ta’ma-manfaat ko’zlamay, uni mutlaq sevish - inson ma’naviy hayotining mohiyati ekanligini zohidlardan birinchi bo’lib ta’kidlagan. Robia ul-Adaviyya g’oyalari keyingi avlod so’fiylari orasida keng tarqalib, Bistomiy, Halloj, Ibn Farid, Ibn Arabiy va boshqa so’fiylar ta’limotining asosini tashkil etgan. Robia ul-Adaviyya taqvodorlik, Allohni sevish namunasi deb bilinib, "avliyo" sifatida ulug’lanadi.⁸² Yuqoridagi parchada uyushiq tarzda berilgan sifatlashlar aynan Robia ul-Adaviyya uchun xos belgilardir. Yozuvchi uni bir uyushiq bo’lakda marjondek tizib ohangdoshlik hosil qilgan.

“Alvido, bolalik”da esa faqat **hazrati So’fiy** nomi uchraydi. Uning *“Kel, eko’ngil, jahon savdosidan kech, qadam g’am kishvarina urmag’il hech!”*(404) deb boshlanuvchi satrlari izohlab beriladi.

Shuningdek, yozuvchi asarlarida obrazlarning voqelikka shaxsiy munosabatini ifodalashda diniy-islomiy modal munosabatli so’zlardan ham foydalanadi. Masalan:

“Endi ham ijtinob etmayinmi?! **Alhazar**, bu ablahlikdan alhazar!”
(10)*Alhazar*–(arabcha hazar qil, ehtiyot, xushyor bo’l) 1.Xudo saqlasin ma’nosida;
2.Undov so’z ma’nosida (“tavba” kabi) qo’llanadi.

“-**Vallohi a’lam**, bissavob, banda bu xususda hukm chiqarmoqqa ojiz.”
(26)*Vallohi a’lam* –(arabcha –Alloh yaxshi biluvchidir) Aniq bilmaslikni ifodalovchi modal so’zdir.

⁸²Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 250-bet

“-**Inshaalloh!** –deyish bilan kifoyalandi.” (32)*Inshaalloh* –“Xudo xohlasa” ma’nosini bildiruvchi modal ma’noli diniy so’zdir.

“Rabbimiz Alloh oqibatni xayrli qilgay, **omiyn!**” (58)*Omiyn* -(arabcha, somiycha - qabul et, ijobat qil) - islom, yahudiy va masihiy dinlarida dindorlar o’rtasida "qabul etsin", "ijobat bo’lsin" ma’nosida ishlatiladigan so’z. Qur’oni karimdagi Fotiha surasi tilovat qilib bo’lingach, o’qigan va eshitganlar "omin" deb qo’yish lozimligi haqida hadisi sharifda ko’rsatma berilgan. Lekin uni imom qiroati jahriy bo’lgan namozda baland ovoz (jahr) bilan yoki o’z ichida (xufya) aytish kerakligi to’g’risida ulamolar turli ijthod qilganlar. Hanafiylik mazhabiga ko’ra, "omin" so’zini xufya aytish sunnat. Muhammad (as) va sahobalari uni baland ovoz bilan aytganlari xususida kelgan hadislarga Abu Hanifa va hanafiylik mazhabi ulamolari aniqlik kiritib, shunday dalil keltiradilar: "Duo va iltijolar aslida xufya, ya’ni past ovozda aytilishi lozim (A’rof surasi, 55-oyat). Shu bilan birga ominni namozda xufya aytilgani haqida hadislar ham bor. Ominni oshkora aytish kerak deganlar keltirgan hadislar Payg’ambar (s.a.v)ning aytganlari haqidadir. U kishi esa imom bo’lgan hollarida aytganlar.

“**Shukrkim**, madrasa bir nobakordan xoli bo’libdir.”(63)*Shukr* –mamnunlik va qanoat hissini bildiruvchi modal ma’noli diniy so’zdir.

“**Astag’firulloh!** –dedi ovozini ko’tarib.” (66)*Astag’firulloh* (Xudo, o’zing saqlagin)–ajablanish, hayratni bildiradi yoki g’azab, norozilikni anglatuvchi so’zdir.

“**Barakalloh!** Tabobatdagi zehningni menga aytishmagan edi.” (80)*Barakalloh* –(Xudo baraka, rizq bersin) mamnunlik, qutlash, tabriklash ma’nosida kelgan.

“**Xudo asrasin!** Bunaqadan uzoqman.”(121)*Xudo asrasin* –xavotir, iltijo ma’nosini bildirgan.

“**Iloyim** endi yaxshi ko’rmasin, - Munira shunday deb Asrorning boshini mehr bilan silab qo’ydi.” (202)*Ilohim* – Xudo xohlasa degani. Xohish-istak ma’nosida keladi

“-Ha, **Xudo saqlasin**, sovuq nafas qilmaylik.”(252)*Xudo saqlasin* –“Xudo asrasin” birikmasiga ma’nodosh bo’lgan diniy so’zdir.

Yozuvchi asarlarida ayrim o'rinlarda diniy-islomiy duo, sura, oyat va hadislardan parchalar, ularning nomlarini ham qo'llaydiki, bu izohni talab qiladi. "Nomus" hikoyatida **labbayka** so'zi bir necha o'rinda qo'llanadi.

"-Labbaykani aytib yo'lga chiqqanlarning barchalarini Alloh saqlasin, shularqatorida akangizni ham o'z panohida asrasin." (39) **Labbayka** –"mana, Allohim, oldingdaman, huzuringdaman" ma'nosini anglatib, haj amallarini bajarish vaqtida aytiladi.

"Falak" qissasida esa xudo yorlaqagur, joyi jannatdan bo'lgur, tavbalari qabulbo'lgur duolari, yosin, taborak suralari nomlari uchraydi.

"Oxiratda Xudo yorlaqagur Sohibqironi akbar hayot ekanliklarida Mirzo Ulug'bek ustozlari Qozizoda Rumiylarini hurmatlab, ul zotning etaklaridan o'pgan ekanlar."(75);

"Joyi jannatdan bo'lgur otasi biz bilan ulfat edi." (100);

"Tavbalari qabul bo'lgur padari buzrugvorim shu yerlarda shahid bo'lganlar."(105)

"Yosin oyatlaridagi Allohning bu xususdagi kalomini eslaylik." (114) **Yosin** (Yasin) - Qur'ondagi 36-suraning nomi. Sura avvalidagi "ya" va "sin" harflaridan tashkil topgan "yosin" kalimasi suraga nom bo'lib qolgan. Bu sura Makkada nozil bo'lgan va 83 oyatdan iborat. Yosinning fazli haqida ko'pgina hadislarda rivoyat qilingan. Ularning aksariyatida Yosin surasi Qur'onning qalbi ekani ta'kidlangan. Shuning uchun "Qur'on qalbi" suraga ikkinchi nom bo'lib qolgan. Makkada nozil bo'lgan boshqa suralar kabi Yosin ham asosiy e'tiborini e'tiqod masalasiga qaratadi. Xususan, qayta tirilish, Payg'ambarlik hamda Alloh taoloning vaqt-soniyati masalalariga alohida e'tibor beradi. Surai karimaning boshida Qur'oni karim bilan qasam ichilib, Muhammad (s.a.v)ning haqiqiy Payg'ambar ekanliklari ta'kidlanadi. Jaholatga botgan quraysh kofirlarining haddan oshib, Muhammad (s.a.v)ni yolg'onchiga chiqarganlari haqida so'z yuritiladi.⁸³

⁸³Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 324-bet

“Tuproq tortilib, “Taborak” o’qilyotganda ham u nest bo’lib o’tirardi.” (128)

Taborak– (arabcha –duo, fotiha olish) Qur’ondagi suralardan birining nomi.⁸⁴

Shuningdek, “Falak” da arabcha diniy-islomiy duoni aynan keltirish ham uchraydi:

“Inna lillahi va inna ilayhi rojiu’un” –bizning barchalarimiz Allohning bandalarimiz va Uning o’ziga qaytgumizdir.” (144).

“Alvido, bolalik”da esa *“bismillah”*oyati uchraydi:

“Arabcha ko’ylakdagi kishi ostonani bosib kirishda “bismillah”ni aytib, so’ng salom berdi.” (424) Bismillah -Bismillohir Rahmonir Rahim (arabcha - "Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan") - islomda ko’p tilga olinadigan, har bir niyat, ibodat va amaliy harakat oldidan aytiladigan oyat. Bismillah Qur’onda 114 suradan 113 tasining boshlanishida ishlatilgan (faqat 9-surada yo’q). Bu oyat xudo bandalariga rahmli (rahim), mehribon (rahmon), musulmonning har bir harakati Alloh nomi bilan boshlanishi lozimligini bildiradi. Payg’ambar (s.a.v) o’z hadislaridan birida: *"E’tiborli har bir ish "Bismilloh" bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir"* deganlar. Ya’ni, uning barakasi bo’lmaydi, oxiriga yetmaydi, deganidir. Qur’on tilovatida Bismillah oldidan "A’uzu billohi minashshaytonir rajim" ("Shaytonning yomonligidan Allohdan panoh tilayman") ham qo’shib aytiladi. Buni har qanday ish va xatti-harakat oldidan shaytonni haydash va uning vasvasasidan xoli bo’lish mazmunida ham talqin etadilar. Diniy manbalarda "basmala" nomi bilan ham yuritiladi.⁸⁵

Demak, yozuvchi asarlarida diniy-islomiy so’zlar va iboralar mushtarak holda bir necha bor qo’llangan. Ayrim o’rinlarda takroriy holatlar ham mavjud. Lekin bu so’zlar har bir asarda boshqa-boshqa vazifa bajargan.

⁸⁴O’zbek tilining izohli lug’ati.5 jildli. T:2006-2008. 3-jild 628-bet.

⁸⁵Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 57-bet

2.3. Tohir Malik ijodida uchraydigan diniy atamalarning bugungi kun uchun ahamiyati

Ma'lumki, diniy adabiyotlarga, shu mazmundagi materiallarga qiziqish doim katta bo'lib kelgan. Bu bejiz emas. Chunki e'tiqodsiz yashab bo'lmaydi. Inson e'tiqodiga ta'sir etuvchi omillar esa, ayniqsa, bugungi kunga kelib muhim va nozik masalaga aylandi. Adashgan oqimlar, buzg'unchi guruhlar o'z g'oyalarini din bilan niqoblaydi. Axborot asrini olgan bugungi davrimizda mavjud imkoniyatlardan ular ham o'z manfaati yo'lida foydalanishyapti. Bu esa diniy mazmundagi axborot-materiallarga nisbatan jiddiy e'tibor bilan yondashishni talab etadi. Zero, inson e'tiqodiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli yuqori bo'lgan har qanday axborot, pirovardida, jamiyat beqarorligiga sabab bo'ladi. Diniy bag'rikenglik, e'tiqod erkinligini himoya qilish hamda ehtimoliy ixtiloflarning oldini olish bugunning eng dolzarb vazifalaridan. Bugungi zamonda ko'p hollarda diniy tushunchalarni noto'g'ri talqin qilish oqibatida islom dini bilan bog'liq yetarli savodi bo'lmagan kishilar turli xil oqimlarga kirib ketayotganligi barchamizga ayon.

Yozuvchi asarlarida uchraydigan diniy so'z va iboralar bevosita uning hayotiy kuzatishlarida namoyon bo'lgan, hayotidagi xulasalaridan kelib chiqqan holda badiiy asarlarida o'z o'rnini egallagan. Har bir o'quvchi bu diniy tushchalarga duch kelar ekan, uning mazmun-mohiyatini aniqlashga harakat qiladi. Agar o'z nutqida bunday so'zlardan foydalanayotgan bo'lsa, to'g'ri-noto'g'riligini aniqlashtirib oladi.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, yozuvchi asarlaridagi diniy-islomiy so'zlarni aniqlash va izohlash orqali nomshunoslikning teonimika sathining yangi bosqichga ko'tarilishiga erishiladi. Shuningdek, kishilar nutqida bu diniy so'z va iboralarning ma'nodoshlarini aniqlashga, ko'chma ma'noda va o'z ma'nosida qo'llanish o'rinlariga e'tibor qaratiladi.

Yozuvchining diniy-islomiy tushunchalarga boy "Odamiylik mulkiga" doir suhbatlari ostida nashr etilayotgan pand-nasihah ruhidagi asarlari, ayniqsa, bugungi kun uchun ahamiyatlidir. Bu asarlarda yozuvchi axloq-odobga oid rivoyat va

hikoyatlar keltirish bilan birga diniy-islomiy tushunchalarni misollar bilan izohlab beradi. Quyidagi parchaga e'tiborimizni qaratamiz:

“Muhtaram Payg'ambarimiz, alayhissalom, dushman bilan jangdan so'ng qaytib kelayotgan bir guruh sahobalariga aytdilarki:

*-Marhabo, sizlarga ! Kichik **jihod**dan katta jihodga keldingiz !*

Sahobalardan biri so'radi:

-Ey Allohning rasuli, katta jihod deganingiz nima?

-Nafs bilan jang qilish, -deb marhamat qildilar Rasululloh (s.a.v).

*Yana dedilarki: “**Mujohid** –Allohga itoat yo'lida nafi bilan jihod qilgan odamdir”.*⁸⁶

Ushbu parchada qo'llangan diniy-islomiy *jihod* va *mujohid* so'zlarini yozuvchi asl mohiyatini tushuntirib beradi. **Jihod** (g'azavot) (arabcha - g'ayrat qilish, kuchni ishga solish) - din yo'lida kurash. Dastlab jihod deyilganda islomni himoya qilish va yoyish uchun kurash tushunilgan.⁸⁷ Oxirgi paytlarda Yaqin va O'rta Sharqdagi ba'zi diniy ekstremistik guruhlar to'g'risida so'z yuritilganda ko'pincha jihod so'zi ishlatilmoqda (masalan, Misrdagi "Jihod", Livandagi "Islom jihodi" va h.k.). Aslida jihod Alloh yo'liga, islom dinini yoyish maqsadiga butun kuch va imkoniyatlarni sarf qilish ma'nosini anglatib kelgan va ba'zida muayyan shartlar bo'lgandagina harbiy kuch ishlatishni ham taqozo etgan. Shu ma'noda jihodni "muqaddas urush" deb talqin qilish odat tusiga kirib qolgan. Hozirgi kunda xalqaro maydonda islom dini bilan niqoblangan terrorchilar jihoddan o'z manfaatlari yo'lida foydalanmoqdalar.

Mujohid -(arabcha - e'tiqod uchun, muqaddas ish uchun kurashchi; aynan – jihod urushining ishtirokchisi) - Sharqdagi barcha musulmon mamlakatlarida ishlatiladigan tushuncha.⁸⁸ Ilk islomda va o'rta asrlarda mujohid xudo yo'lida jang qiluvchi deb talqin etilgan. Yirik islom ruhoniylari yoki tashkilotlari biror urushni jihod (g'azavot) deb fatvo bergan holdagina ana shu urush qatnashchilari mujohid hisoblangan. Hozirgi davrda musulmon mamlakatlarida demokratik harakatlarga va

⁸⁶ Tohir Malik. Vijdon uyg'onur. Toshkent:- Yangi asr avlodi. 2014. 34-bet

⁸⁷ Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 154-bet

⁸⁸ Islom ensiklopediyasi. Toshkent:2004. 199-bet

milliy hukumatlarga qarshi olib borilayotgan reaksiyon harakatlar ishtirokchilari o'zlarini mujohid deb ataydilar.

Shuningdek, ushbu parchada yozuvchi diniy-islomiy ismni diniy va hayotiy asos bilan izohlab beradi:

*“Umidimiz yulduzlari, tengdoshlaringiz orasida “Abror” ismli do'stlaringiz ham bor. Bu ismning ma'nosini bilasizmi? Alloh taolo yaxshilik qiluvchi bandalarini “Abror” deb maqtagan.”*⁸⁹

Quyidagi parchada esa ichkilikning “xamr” deb atalashidagi izohi beriladi:

*“Payg'ambarimiz alayhissalom, “Xamr (ya'ni aqlni olg'uvchi har bir narsa) yomonliklar onasidir,” deganlar. Yana marhamat qilib dedilarkim: “Xamrdan saqlan. Uning daraxti boshqa daraxtlardan oshib o'tgani kabi gunohlari ham boshqa gunohlardan oshib tushadi.”*⁹⁰

Yozuvchining “Odamiylik mulki”ga doir suhbatlardan iborat didaktik asarlarini o'qir ekansiz, shu va shunga o'xshash ko'pgina bugungi kun uchun dolzarb bo'lgan diniy tushunchalar izohlanadi. Qur'oni karimdagi oyatlar talqini beriladi, hadisi shariflardan misollar keltiriladi.

Yuqorida ko'rib chiqqan asarlarimiz orqali nutqimizda faol va nafaol qo'llanuvchi diniy so'z va iboralarning ma'nolari, qo'llanishdagi uslubiy vazifalari anqilashtirildi. Yozuvchining badiiy asarlarida diniy so'zlarni qo'llashdagi mahorati, bilimi yaqqol namoyon bo'ldi.

Islom diniga qiziqishi katta bo'lgan har bir shaxs yozuvchi asarlarida uchraydigan diniy tushunchalarni bemalol anglaydi. Badiiy asardagi o'rnini belgilab oladi. Bugungi kunda jamiyatimizda noto'g'ri talqin qilinayotgan diniy so'z va iboralarning asl mohiyatini bilib oladi. Ularga o'zining shaxsiy munosabatini bildiradi.

Umuman, diniy-islomiy so'zlarning yozuvchi asarlari leksikasidagi tizimini belgilash, asarlaridagi tutgan o'rni va maqomini aniqlash kelajakda keng miqyosda o'rganilishi lozimligidan dalolat beradi.

⁸⁹ Tohir Malik. Vijdon uyg'onur. Toshkent.: -Yangi asr avlodi. 2014. 128-bet

⁹⁰ Tohir Malik. Vijdon uyg'onur. Toshkent.: -Yangi asr avlodi. 2014. 67-bet

II bob bo'yicha chiqarilgan xulosa

1. II bob “Yozuvchi asarlarida uchraydigan diniy soʻz va iboralarning miqdori va salmogʻi” deb atalib, ushbu bobda Tohir Malikning bitiruv malakaviy ish tekshiruv predmetiga aylangan uch asaridagi diniy-islomiy soʻz va iboralarning qoʻllanish hajmi aniqlandi.

2. Tohir Malik asarlarda eng koʻp oʻrinda ishlatilgan diniy soʻz va iboralar belgilab olindi va qoʻllanishdagi sabablari misollar asosida tekshirildi.

3. “Falak” qissasidagi diniy-islomiy soʻzlar leksik-semantik tadqiq qilindi. Ularni mavzuviy tasnif qilishga harakat qilindi. Qissadagi diniy-islomiy soʻzlarni eʼtiqod maʼnosini bildiruvchi leksik qatlam doirasida tekshirildi.

4. Qissadagi diniy-islomiy soʻzlar diniy terminlar (Xudo, paygʻambar, namoz, roʻza kabi); shaʼriy terminlar (idda, nikoh, taloq, rajm kabi); diniy-tasavvufiy terminlar (pir, muridlik, qalandar, darvesh kabi) doirasida oʻrganildi.

5. Qissadagi diniy birikma va turgʻun birikmalar ham alohida tadqiq qilindi. Asar matnidagi lisoniy vazifasi aniqlandi.

6. Qissada keltirilgan diniy-islomiy sifatlashlar, harakat va holat leksemalari ham izohlandi.

7. Bitiruv malakaviy ish tekshirish predmetiga aylangan asarlardagi oʻxshash diniy soʻz va iboralar, xususan, ularning mavzuviy mos kelishi ham oʻrganib chiqildi. Har uchala asarda ham uchrovchi diniy soʻz va iboralardagi maʼnoviy farqlanishi aniqlandi. Asarlarda keltirilgan duo va oyatlar, tarixiy shaxslar va joy nomlari maʼnolari izohlab berildi.

8. Bobning oxirgi qismida yozuvchi asarlarida uchraydigan diniy-islomiy soʻzlarning bugungi kun uchun ahamiyati bayon etilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Tohir Malik asarlarida personajlar tilidan aytilgan diniy soʻzlar “kalima”, “duo”, “doʻzax”, “qiyomat”, “tahorat”, “nafl roʻza”, “hidoyat”, “nomahram” va shu kabilar yozuvchi ijodini tadqiq qilishga undaydi. Diniy soʻzlar yozuvchi ijodida shunchaki qoʻllab ketilavermaydi. Ular maʼlum bir voqelikka personajlarning munosabatini bildirish uchun, diniy uquvini oʻquvchiga koʻrsatish uchun, shuningdek, maʼrifiy vazifani oʻtash uchun xizmat qiladi.

2. Diniy soʻzlar masalasida biz koʻpincha shaʼriy atamalar bilan cheklanamiz. Aslida esa eʼtiqod maʼnosini ifodalaydigan lisoniy-nutqiy birliklar tizimi birmuncha kengroq boʻlib, ularni shartli ravishda shaʼriy terminlar; diniy soʻzlar; diniy maʼno ifodalaydigan lisoniy-nutqiy birliklar tarzida uch guruhga boʻlish mumkin.

3. Yozuvchi ijodini tadqiq qilishda faqat diniy soʻzlar tadqiqi bilan cheklanib qolib boʻlmaydi. Chunki tasavvufiy mazmun kasb etgan soʻzlar ham, eʼtiqod nuqtai nazaridan qaralganda, oʻrganilish obyektlaridan biri sanaladi.

4. Islomda dinning asosi – shariat. Demak, diniy soʻzlarning asosi shaʼriy terminlardir. Yozuvchi asarlarida aynan biz shariat bilan bogʻliq terminlarni uchratamiz.

5. Diniy soʻzlarning leksik maʼnolarini izohlash orqali “islomiy atamalar lugʻati”ni tuzish va chop ettirishni leksikografiyaning vazifalaridan biri sifatida dolzarb masalaga aylantiradi. Shu paytgacha oʻzbek tilida toʻkis islomiy lugʻat chop etilmagan. Toʻgʻri, “Islom ensiklopediyasi” chop etilgan, lekin undagi atigi mingga yaqin atamalar ensiklopediya uchun yetarli emas.

6. Yozuvchi ijodini oʻrganish orqali oʻzbek tili leksikasida diniy-islomiy soʻzlar tizimining oʻziga xos tarkibi; diniy-islomiy soʻzlarning oʻzbek tilidagi tutgan oʻrni va maqomi; tilning diniy-islomiy soʻzlar bilan bogʻliq imkoniyatlarini istiqbolda yirik plandagi tadqiqot obyektlari qatorida oʻrganilishi lozimligidan dalolat beradi.

7. Yozuvchi asarlaridagi diniy-islomiy soʻzlarning oʻziga xos tarkibi haqida toʻxtaladigan boʻlsak, uning ijodida islom dini ahkomlari bilan bogʻliq shariat teminlari, islomiy farzlarga doir terminlar, shuningdek, islom diniga bogʻliq boʻlgan

tushunchalar va nutqimizda faol ishlatiladigan diniy iboralarni qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz.

8. Tohir Malik asarlarda eng ko'p o'rinda ishlatilgan diniy so'z va iboralar belgilab olindi va qo'llanishdagi sabablari misollar asosida tekshirildi.

9. "Falak" qissasidagi diniy-islomiy so'zlar leksik-semantik tadqiq qilindi. Ularni mavzuviy tasnif qilishga harakat qilindi. Qissadagi diniy-islomiy so'zlarni e'tiqod ma'nosini bildiruvchi leksik qatlam doirasida tekshirildi.

10. Qissadagi diniy-islomiy so'zlar diniy terminlar (Xudo, payg'ambar, namoz, ro'za kabi); sha'riy terminlar (idda, nikoh, taloq, rajm kabi); diniy-tasavvufiy terminlar (pir, muridlik, qalandar, darvesh kabi) doirasida o'rganildi.

11. Qissadagi diniy birikma va turg'un birikmalar ham alohida tadqiq qilindi. Asar matnidagi lisoniy vazifasi aniqlandi.

12. Qissada keltirilgan diniy-islomiy sifatlashlar, harakat va holat leksemalari ham izohlandi.

13. Bitiruv malakaviy ish tekshirish predmetiga aylangan asarlardagi o'xshash diniy so'z va iboralar, xususan, ularning mavzuviy mos kelishi ham o'rganib chiqildi. Har uchala asarda ham uchrovchi diniy so'z va iboralardagi ma'noviy farqlanishi aniqlandi. Asarlarda keltirilgan duo va oyatlar, tarixiy shaxslar va joy nomlari ma'nolari izohlab berildi.

14. Ushbu bitiruv malakaviy ishida olib borilgan tadqiqot asosida diniy-islomiy atamalar izohli lug'atini tuzish va boyitib boorish taklif qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Axloq-odobga oid hadis namunalari. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar Hamidulla Hikmatullayev, Abdulaziz Mansurov. –T.: Fan, 1990. -170 b.
3. Begmatov E. O'zbek ismlari маъноси. 2-нашр. –T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. -608 b.
4. Hakimov Dilshodbek. E'tiqod ma'nosini ifodalaydigan lisoniy-nutqiy birliklar //O'zbek tili va adabiyoti, 2016. -№ 6. 25-b.
5. Islom ensiklopediyasi. /Zuhriddin Husniddinov tahriri ostida. –T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. -357 b.
6. Islomiy atamalar lug'ati. Muallifi Abdulaziz Mansurov. Ziyonet dan olingan. Toshkent. 2007.
7. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. –T.: O'qituvchi, 1993.
8. Ne'matov, R.Rasulov O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun qo'llanma.–T.:O'qituvchi, 1995.–127 b.
9. Nurmonov A., Shahobiddinova SH., Iskandarova SH., Nabiyeva D. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya.–T.:Yangi asr avlodi,2001. –201 b.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –680 b.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild.–T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. –671 b.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007-yil. –687 b.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007-yil. –607 bet.
14. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007-yil. –509 bet.
15. Safarov SH., Toirova G., Nutqning etnosotsiopragsmatik tahlili asoslari. O'quv qo'llanma. – S.: SamDCHTI nashri, 2007. – 39 bet.
16. Safarova R. Leksik-munosabat turlari. –T.: O'qituvchi,1996.

17. Tohir Malik. Alvido, bolalik. –T.: Yangi asr avlodi. 2015. –500 b.
18. Tohir Malik. Nomus. –T.: Davr press NMU. 2016. –183 bet.
19. Tohir Malik. Vijdon uyg'onur. –T.: Yangi asr avlodi. 2014. –367 b.
20. Tohir Malik. Falak. –T.: Davr press NMU. 2016-yil. –166b.
21. Yuz bir hadis va uning sharhi / Tarjimon va nashrga tayyorlovchi – Teshaboy Ziyoyev. –T.: “Mehnat”. 1991-yil. –46 b.

INTERNETDAN OLINGAN MA'LUMOTLAR

1. [http: // www. Ziyonet uz /](http://www.Ziyonet.uz/)
2. [http: // www. Iste`dod. uz/](http://www.Iste`dod.uz/)
3. [http: // www. Kitob. uz /](http://www.Kitob.uz/)